

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**



URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

TARIX FAKULTETI

**Milliy g`oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'lim kafedrasining
5141500 Milliy istiqlol g`oyasi, huquq va ma'naviyat asoslari
ta'lim yo`nalishi bo'yicha
(shifri va ta'lim yo`nalishi nomi)
bakalavr darajasini olish uchun**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Mavzu: O`zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy tuzilishi

Ilmiy rahbar:

S.Quryozov

Urganch 2013 yil

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

Tarix
(fakultet nomi)

Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi
(kafedra nomi)

O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy tuzilishi
(bitiruv malakaviy ish mavzusining nomi)

Bajaruvchi:

Jumaniyazov Sanjarbek

Rahbar:

Sanjar Quryozov

Urganch shahri
2013-yil

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

Tarix

(fakultet nomi)

Milliy g`oya, ma`naviyat asoslari va huquq ta`limi

(kafedra nomi)

BITIRUV MALAKAVIY ISHNI BAJARISH BO`YICHA

TOPSHIRIQLAR REJASI:

1. Talaba Jumaniyazov Sanjarbekga Universitet rektorining «189T 1&»-sonli 25 dekabr 2012 yil buyrug`i bilan bitiruv malakaviy ish bajarish uchun “O`zbekiston Respublikasining ma`muriy-hududiy tuzilishi” mavzusi tasdiqlangan.

2. **Kafedra majlisining qaroriga binoan** S. Quryozov bitiruv malakaviy ishini bajarishga rahbar qilib tayinlangan.

3. **Bitiruv malakaviy ishining tarkibiy tuzilmasi:** Bitiruv malakaviy ish – Kirish, 2 ta bob, 6 ta paragraf, Xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro`yxatidan iborat.

4. **Bitiruv malakaviy ish uchun ma`lumotlar.** O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov asarlaridan, Oliy Majlis palatalari yig`ilishlari materiallaridan, mavzuga oid ilmiy maqola, risola, monografiyalardan, matbuot va internet materiallaridan olindi.

5. **Bitiruv malakaviy ishga** _____

_____ilova qilinadi.

Bitiruv malakaviy ishni bajarish jadvali

<i>№</i>	<i>Bajarilgan ishning mazmuni</i>	<i>Bajarish muddati</i>
1.	Ishning rejasini tuzish va adabiyotlar izlash.	2012 yil dekabr
2.	Materiallar izlash	2013 yil yanvar
3.	Ishning kirish qismini tayyorlash	2013 yil fevral
4.	I-Bobga oid materiallarni umumlashtirish va tahlil qilish	2013 yil mart
5.	II-Bobga oid materiallarni umumlashtirish va tahlil qilish	2013 yil aprel
6.	Ishning xulosasini tayyorlash	2013 yil may
7.	Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatini tuzish	2013 yil may

Bitiruv malakaviy ish rahbari:

S.Quryozov

Bajaruvchi talaba:

Jumaniyazov Sanjarbek

2013 yil «29» dekabr

Topshiriqlar rejasi va jadvali kafedra majlisida 2012 yil tasdiqlandi

(«9»- sonli bayonnoma)

Kafedra mudiri:

dots. O. Abdullaev

(imzo)

BITIRUV MALAKAVIY ISH BO`YICHA RAHBARINING MULOHAZALARI

Talaba: Jumaniyazov Sanjarbek

Bitiruv malakaviy ish mavzusi: O`zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy tuzilishi

Bitiruv malakaviy ish hajmi: 69 sahifa

Tushuntirish qismi: 55 sahifa

Ilovalar soni: -

Mavzuning dolzarbligi: Xalqaro huquq me'yorlariga ko'ra har bir davlatning hududi – davlat chegarasi doirasidagi yer kengliklaridan iboratdir. Yer kengliklariga esa ushbu hududlarning quruqlik qismi, suv akvatoriyasi, yer osti boyliklari va atmosfera havosi kiradi. Mazkur tabiiy ob'ektlar har bir davlatda yashovchi insonlar uchun moddiy baza hisoblanadi. Shuning uchun ham har bir davlat, jumladan, O`zbekiston Respublikasining hududi uning siyosiy-ijtimoiy hayotida muhim o`rin egallaydi va mustaqilligining real ifodasi deb qaraladi.

Ana shulardan kelib chiqqan holda O`zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy tuzilishi va davlat tuzilishining konstitutsiyaviy asoslari masalasi bugungi kunning dolzarb masalasi hisoblanadi.

Bitiruvchi umumkasbiy va maxsus tayyorgarligining tavsifi: Jumaniyazov Sanjarbek barcha fanlarni to`la o`zlashtirib, ularni amaliyotga qo`llash ko`nikmasiga ega.

Bitiruvchi talabani mustaqil ishni bajarish layoqati, maxsus adabiyotlardan foydalanish qobiliyati va shaxsiy xususiyatlari Jumaniyazov Sanjarbek o`zi mustaqil ishlay oladi, maxsus adabiyotlardan foydalanish qobiliyatiga ega. O`zining mutaxassisligi bo`yicha mustaqil ishlashga layoqatli, yangilikka intiluvchi, tashabbuskor, o`z ustida muntazam ishlaydi. Muomalasi yaxshi, ishga mas`uliyat bilan yondashadi.

Bitiruv malakaviy ishning ijobiy tomonlari. Ishda O`zbekiston Respublikasining ma`muriy-hududiy tuzilishi va uning asosiy tamoyillari, O`zbekiston Respublikasining huquqiy maqomi masalalari aniq faktlarda, O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari asosida har tomonlama chuqur yoritib berilgan.

Bitiruv malakaviy ishga qo`yilgan talablarning bajarilishi darajasi.

Ish talabga to`la javob beradi. Uning materiallaridan amaliyotda keng foydalanish mumkin

Bitiruv malakaviy ish rahbari:

S. Quryozov

(f.i.sh.)

2013 yil «25» may

Urganch davlat universiteti

Tarix fakulteti

**Milliy istiqlol g'oyasi, huquq va ma'naviyat asoslari ta'lim yo'nalishining
talabasi Sanjarbek Jumaniyazovning Bitiruv malakaviy ishiga**

T A Q R I Z

Malakaviy ish mavzusi: O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy tuzilishi

Malakaviy ishning hajmi: 12 ming so'zdan iborat

a) tushuntirish qismi varaqlar soni: 69 sahifadan iborat

b) ilovalar soni: _____

Bitiruv malakaviy ish mavzusining dolzarbligi va berilgan topshiriqqa mosligi. Ishning mavzusi dolzarb, berilgan topshiriqqa mosdir

Bitiruv malakaviy ishning «Kirish» qismida va ilova qilingan materiallarning tarkibi va bajarilish sifati: ishning kirish qismida mavzuning dolzarbligi, ilmiy o'rganilganlik darajasi, metodologik asosi va muhim manbalari, maqsad va vazifalari, amaliy ahamiyati, tarkibiy tuzilishi va hajmi o'z aksini topgan bo'lib, talabga to'la javob beradi.

Malakaviy ishda ilmiy manbalar, Fan-texnika innovatsiya yutuqlari natijalaridan foydalanilganligi: Bitiruv malakaviy ishda ilmiy adabiyotlardan, innovatsion yutuqlar natijalardan, prezident asarlaridan keng foydalangan.

Bitiruv malakaviy ishning ilmiy-uslubiy va texnik iqtisodiy jihatdan asoslanganligi. Ishda mavzuga oid barcha ma'lumotlar umumlashtirilgan va tahlil qilingan. Ish ilmiy uslubiy va texnik iqtisodiy jihatdan to'la asoslab berilgan. Amaliy ahamiyati ham ko'rsatilgan.

Bitiruv malakaviy ishning ijobiy tomonlari. Berilgan tavsiyalarni ishlab chiqarishda va ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanish imkoniyatlari: Ishda mavzuning ilgari kitoblarda aks ettirilmagan jihatlari ko'rsatib berilgan. Ishning materiallari va tavsiyalardan ta'lim sohasida ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'rganishda hamda ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda muhim manba sifatida foydalanish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishidagi kamchiliklar. Ishda ayrim texnik kamchiliklar va juz'iy orfografik xatolar mavjud. Ular ishning ahamiyatini pasaytirmaydi.

Taqrizchi: _____ UrDU Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq
ta'limi kafedrasi o'qituvchisi Ulug'bek Xajiyev
(imzo) (lavozimi, ish-joyi, darajasi, f.i.sh.)

2013 yil «31» may

Bitiruv malakaviy ishni DAK tomonidan baholash mezonlari

№	Baholanadigan bo`limlar	Eng yuqori ko`rsatkich ball hisobida
1	BMI ning “Kirish” qismida mavzuning dolzarbligi, maqsad va vazifalarning yoritilishi	10
2	Ishning asosiy (tushuntirish) qismining Nizom talablariga mos holda bajarilishi	35
3	“Xulosa” qismida ilmiy-nazariy va amaliy tavsiyalarning mavjudligi	10
4	Ishni bajarishda mavzuga oid manbaalarning tahlili. Chet el adabiyotlaridan va internet materiallaridan foydalanish	10
5	Ishdagi ilovalarning mavzu mazmuniga mosligi	10
6	Ishni bajarishda grammatika qoidalariga amal qilinganligi	5
7	Himoyaga ish mazmunini bayon qila bilganligi. Savollarga berilgan javoblar darajasi	10
8	BMI mavzusi bo`yicha ilmiy-nazariy seminarlar va konferensiyalarda ma`ruza (axborot) bilan ishtiroki, maqola (tezis) nashr qilinganligi	10

Eslatma: har bir kafedraning xususiyatlari e’tiborga olingan holda baholash mezonlariga o`zgartirishlar kiritish maqsadga muvofiq.

Urganch davlat universiteti Tarix fakulteti
 Milliy istiqlol g'oyasi, huquq va ma'naviyat asoslari ta'limi yo'nalishining
 bitiruvchisi Jumaniyazov Sanjarbekning "O'zbekiston Respublikasining
 ma'muriy-hududiy tuzilishi" mavzusida bajarilgan bitiruv malakaviy ishi DAK
 ning «____» 2013 yil «____iyun» dagi majlisida himoya qilinadi.

**Davlat attestatsiya komissiyasi bitiruv malakaviy ishga quyidagi
 o'zlashtirish ko'rsatkichlarini belgilaydi.**

№	Baholanadigan bo'limlar	Eng yuqori ko'rsatkich ball hisobida	Komissiya belgilagan foiz
1	BMI ning "Kirish" qismida mavzuning dolzarbligi, maqsad va vazifalarning yoritilishi	10	
2	Ishning asosiy (tushuntirish) qismining Nizom talablariga mos holda bajarilishi	35	
3	"Xulosa" qismida ilmiy-nazariy va amaliy tavsiyalarning mavjudligi	10	
4	Ishni bajarishda mavzuga oid manbaalarning tahlili. Chet el adabiyotlaridan va internet materiallaridan foydalanish	10	
5	Ishdagi ilovalarning mavzu mazmuniga mosligi	10	
6	Ishni bajarishda grammatika qoidalariga amal qilinganligi	5	
7	Himoyaga ish mazmunini bayon qila bilganligi. Savollarga berilgan javoblar darajasi	10	
8	BMI mavzusi bo'yicha ilmiy-nazariy seminarlar va konferensiyalarda ma'ruza (axborot) bilan ishtiroki, maqola (tezis) nashr qilinganligi	10	
Jami:			

Davlat attestatsiya komissiyasi majlisining qarori:

1. _____

mavzusida bajargan bitiruv malakaviy ish uchun _____ lik o'zlashtirish
 ko'rsatkichi belgilanish va «_____» deb baholansin.

2. _____

DAK raisi: _____

A'zolari: _____

2013 yil «_____» _____

Urganch davlat universiteti Tarix Fakulteti

Milliy g`oya, ma`naviyat asoslari va huquq ta`limi kafedrası

Bitiruv malakaviy ish _____sonli tartib raqam bilan
qayd qilindi.

Bitiruv malakaviy ishni bajaruvchining ismi-sharifi: Jumaniyazov Sanjarbek

Bitiruv malakaviy ishning mavzusi: “O`zbekiston Respublikasining ma`muriy-
hududiy tuzilishi”

Ilmiy rahbar (maslahatchi)ning ismi-sharifi:

S. Quryozov

Bitiruv malakaviy ish kafedraning 2013 yil «29» mayda o`tkazilgan majlisi
qaroriga muvofiq DAK majlisida himoya qildi.

Bitiruv malakaviy ishga taqrizchi qilib Ulug`bek Xajiyev tayinlandi.

Kafedra mudiri:

dots. O. Abdullaev

Kafedraning bitiruv malakaviy ishni DAK majlisida himoya qilish bo`yicha
tavsiyasiga roziman.

Fakultet dekani:

dots. T. Abdullaev

Urganch davlat universiteti Tarix fakulteti
Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi kafedrası
5141500 – Milliy istiqlol g'oyasi, huquq va ma'naviyat asoslari ta'limi
yo'nalishi

“Tasdiqlayman”
fakultet dekani
dots. T.Abdullayev
“ ____ ” ____ 2013 y.

BITIRUV MALAKAVIY ISH BO'YICHA TOPSHIRIQ

Talaba Jumaniyazov Sanjarbek

1. Ishning mavzusi: “O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy tuzilishi”

25 dekabr 2012 yil universitet rektorining 189t 1& sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan.

2. Ishni topshirish muddati: “ ____ ” ____ 2013 y.

3. Mavzu bo'yicha dastlabki ma'lumotlar beruvchi adabiyotlar ro'yxati.

- a) Davlat va huquq nazariyasi / H.B.Boboev va H.T.Odilqorievlar umumiy tahriri ostida-T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 2000.
- b) M.Sharifxo'jaev, N.Shodiev. O'zbekiston konstitutsiyaviy davlat. T., «O'zbekiston». 2003.
- v) Tadjixanov U., A. Saidov, X. Odilqoriyev. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy huquqi. (darslik). —T., «Sharq», 2001.
- g) Odilqoriyev H.T. O'zbekistonning yangi Konstitutsiyasi va hokimiyatlar bo'linishi prinsipi.T.: 2003.
- d) Muhamedov H.M. O'zbekiston davlatchiligining huquqiy asoslari.—T.: Adolat, 1999.
- e) Boboyev H.B., Normatov K, Milliy davlatchilik haqida.T.: O'zbekiston, 1999.

4. Ishning maqsadi: O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy tuzilishi masalalarini Konstitutsiya va qonunlar asosida yoritib berish

5. Chizma materiallar ro'yxati: _____

6. Maslahatchilar: _____

Bo`limlar	Maslahatchi F.I.SH.	Imzo, sana	
		Topshiriq berdi	Topshiriq qabul qildi

Ishga taqriz yozuvchining F.I.SH., ilmiy darajasi, unvoni: Ulug`bek Xajiyev

7. Ilmiy rahbar: Quryozov Sanjar

BMI bajaruvchi talaba: Jumaniyazov Sanjarbek

 (F.I.SH.) (imzo)

Kafedra mudiri: dots. O. Abdullaev

 (F.I.SH.) (imzo)

Mavzu: O`zbekiston Respublikasining ma`muriy-hududiy tuzilishi.

Reja:

Kirish.....	15-18
I-Bob. O`zbekiston Respublikasining ma`muriy-hududiy va davlat tuzilishining konstitutsiyaviy asoslari.....	19-42
1.1. Davlat tuzilishi tushunchasi, shakllari va prinsiplari.....	19-30
1.2. O`zbekiston Respublikasining ma`muriy-hududiy tuzilishi.....	31-39
1.3. Ma`muriy-hududiy qismlarni tashkil qilish, o`zgartirish va tugatish tartibi.....	40-42
 II-Bob. Qoraqalpog`iston Respublikasining konstitutsiyaviy-huquqiy maqomi.....	 43-63
2.1. Qoraqalpog`iston Respublikasi O`zbekiston Respublikasi tarkibidagi suveren davlat.....	43-49
2.2. Qoraqalpog`iston Respublikasi Konstitutsiyasi va davlat tuzilishi.....	50-55
2.3. O`zbekiston Respublikasining ma`muriy-hududiy va davlat tuzilishi mavzusi bo`yicha dars ishlanmasi.....	56-63
 Xulosa.....	 64-66
 Foydalanilgan adabiyotlar.....	 67-69

Kirish.

Mavzuning dolzarbligi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 1-moddasiga muvofiq u suveren demokratik respublika bo'lib, mustaqil davlat hisoblanadi. "Mustaqillik" esa Prezidentimiz I.A.Karimov iborasi bilan aytganda, avvalom bor "huquq" demakdir. Chunki davlatimizning hozirgi ma'muriy-hududiy chegarasida birinchi bor O'zbekiston xalqi o'z moddiy va ma'naviy boyliklaridan o'z xohishicha, ya'ni o'zining Konstitutsiyasi va uning asosida qabul qilingan qonun hujjatlariga muvofiq ravishda jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish imkoniyati – "huquqi" yuzaga keldi. Endilikda, biz va bizning xalqimiz xom ashyo yetkazib beradigan chekka o'lkada emas, balki mustaqil ravishda o'z huquqimizni amalda tatbiq qila oladigan milliy suveren davlatda yashayotganimizni alohida ta'kidlash joizdir.

O'zbekiston Respublikasi "...O'zbekiston xalqining munosib turmushini, huquqlarini va erkinliklarini kafolatlash, milliy qadriyatlarimiz va madaniyatimiz qayta tiklanishi, insonning ma'naviy-axloqiy barkamolligini ta'minlash..."¹ ga qaratilgandir.

Mustaqil milliy davlatchiligimiz, avvalambor daxlsiz yer kengliklariga ega bo'lishimiz, so'ngra, davlat tili sifatida – o'zbek tilini qabul qilishimiz, Prezidentlik institutini ta'sis etishimiz, ma'muriy-hududiy qismlarni o'z tariximizga suyangan holda – viloyat va tuman deb atashimiz hamda ularda hokimlik lavozimini o'rnatishimiz, xalqaro hamjamiyat tomonidan suveren davlat sifatida tan olinishimiz va albatta, o'z Konstitutsiyamizga ega bo'lishimizdadir.

Har bir mustaqil davlatning umumiy e'tirof etilgan asosiy belgilaridan biri – o'z chegarasi doirasidagi yagona ma'muriy hududiga ega bo'lishidir².

¹ Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqloq, iqtisod, siyosat, mafkura. T.1. – T.: O'zbekiston, 1996 – 123-bet.

² U.Tadjixanov, A.Saidov. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy huquqi., T.: 2005. 119-bet.

1991 yil 31 avgustda bo`lib o`tgani O`zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining XII chaqiriq, navbatdan tashqari 6-sessiyasida qabul qilingan "O`zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to`g`risida"gi konstitutsiyaviy qonunining 4 va 17-moddalariga binoan Respublikamiz davlat chegarasi hamda hududi daxlsiz va bo`linmasdir. Uning xalqi o`z xohish-irodasini erkin bildirmasdan turib, davlat chegarasi va hududining o`zgartirilishi mumkin emas. O`zbekiston tarkibida bo`lgan Qoraqalpog`iston Respublikasining hududiy butunligi va mustaqilligi e`tirof etiladi. Ushbu huquqiy holat Birlashgan Millatlar Tashkiloti Nizomiga va Mustaqil Davlatlar Hamdo`stligining 1991 yil 21 dekabrda Olmaotada imzolangan xalqaro shartnomasiga to`la ravishda mos tushadi.

Xalqaro huquq me`yorlariga ko`ra har bir davlatning hududi – davlat chegarasi doirasidagi yer kengliklaridan iboratdir. Yer kengliklariga esa ushbu hududlarning quruqlik qismi, suv akvatoriyasi, yer osti boyliklari va atmosfera havosi kiradi. Mazkur tabiiy ob`ektlar har bir davlatda yashovchi insonlar uchun moddiy baza hisoblanadi. Shuning uchun ham har bir davlat, jumladan, O`zbekiston Respublikasining hududi uning siyosiy-ijtimoiy hayotida muhim o`rin egallaydi va mustaqilligining real ifodasi deb qaraladi.

Ana shulardan kelib chiqqan holda O`zbekiston Respublikasining ma`muriy-hududiy tuzilishi va davlat tuzilishining konstitutsiyaviy asoslari masalasi bugungi kunning dolzarb masalasi hisoblanadi.

**Mavzuning o`rganilish darajasi.** O`zbekiston Respublikasining ma`muriy-hududiy tuzilishi va davlat tuzilishining konstitutsiyaviy asoslari masalalari respublikamizning yetuk huquqshunos olimlari akademik Sh.O`razaev¹, professorlar U.Tojixonov, H.Odilqoriyev, A.Saidov²,

¹ Sh.O`razaev. Mustaqil O`zbekiston Konstitutsiyasi.–T.: 1995.

² U.Tadjixanov, H.Odilqoriyev, A.Saidov.O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy huquqi., "Sharq" Toshkent 2001y. IIV. Akademiyasi.

R.Q.Qayumov¹, X.T.Odilqoriev², D.Q.Ahmedov³, Z.Islomov⁴, O.T.Husanov, X.T.Azizov⁵ va boshqa olimlarning asarlarida yoritib berilgan.

Bitiruv malakaviy ishning maqsad va vazifalari. Respublikamiz konstitutsiyasiga amal qilgan holda mamlakatimizda ulkan ishlar amalga oshirildi, jamiyatning barcha sohalarida, jumladan O`zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy tuzilishi va davlat tuzilishi munosabatlarida ham jiddiy islohotlar amalga oshirildi.

Shulardan kelib chiqqan holda bizning maqsadimiz O`zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy tuzilishi va davlat tuzilishining konstitutsiyaviy asoslari munosabatlarini chuqur tadqiq qilgan holda atroflicha o`rganishdan iborat.

Bitiruv malakaviy ishning metodologik asosi va muhim manbalari. Prezident I.A.Karimovning asarlari, hukumat qarorlari, Oliy Majlis palatalari yig`ilishlari materiallari, mavzuga oid pisola, monografiya va ilmiy maqolalar, matbuot hamda internet materiallari Bitiruv malakaviy ishni tayyorlashda metodologik asos va muhim manba bo`lib xizmat qiladi.

Ishning ilmiy yangiligi. O`zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy tuzilishi, O`zbekiston Respublikasi va uning tarkibidagi suveren Qoraqalpog`iston Respublikasi o`rtasidagi o`zaro munosabatlarning Konstitutsiyaviy-huquqiy tartibga solinishi masalalari huquqiy tahlil qilingan va umumlastirilgan.

Bitiruv malakaviy ishning amaliy ahamiyati. Bitiruv malakaviy ishida o`rganilayotgan mavzu bo`yicha qonun hujjatlarini tadqiq qilgan

¹ Qayumov R.Q. O`zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy huquqi.T.: Adolat, 1998.

² Odilqoriyev H.T. O`zbekistonning yangi Konstitutsiyasi va hokimiyatlar bo`linishi prinsipi.T.: 1993.

³ Ahmedov D.Q. Xorijiy mamlakatlarda siyosiy partiyalar va partiyaviy tizim. T.: 2004

⁴ Z.Islomov. Obshestvo. Gosudarstvo. Pravo.T.:Adolat. 2001.

⁵ Husanov O. T, Azizov X. T.Davlat va huquq asoslari. (Izohli lug`at).T: O`qituvchi, 1996.

holda O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy tuzilishi va davlat tuzilishining konstitutsiyaviy asoslariga oid munosabatlarni tartibga solish masalasini o'rganish va shu sohadagi tarqoq materiallarni bir joyga to'plash imkonini beradi. Bitiruv malakaviy ishdan huquqshunoslik, ma'muriy huquq, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish fanlarini o'qitishda dars jarayonida va talabalar kurs ishlarini, mustaqil ishlarini tashkil qilishda foydalanish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi. Bitiruv malakaviy ishi kirish, ikki bob, olti paragraf va xulosadan iborat. Birinchi bob O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy tuzilishi va davlat tuzilishining konstitutsiyaviy asoslari masalasiga bag'ishlangan bo'lib, bu bobda davlat tuzilish shakli va prinsiplari, O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy tuzilishi, ma'muriy-hududiy qismlarni tashkil qilish, o'zgartirish va tugatish tartibi masalalari o'z ifodasini topgan.

Ikkinchi bob Qoraqalpog'iston Respublikasining konstitutsiyaviy maqomi deb nomlanadi va bu bobda Qoraqalpog'iston Respublikasi O'zbekiston Respublikasi tarkibidagi suveren davlat, Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitutsiyasi va davlat tuzilishi, shuningdek O'zbekiston Respublikasining mahalliy davlat tuzilishi mavzusi bo'yicha dars ishlanmasi ham keltirilgan.

I-Bob. O`zbekiston Respublikasining ma`muriy-hududiy tuzilishi va davlat tuzilishining konstitutsiyaviy asoslari.

1. Davlat tuzilishi tushunchasi, shakllari va prinsiplari.

O`zbekiston Respublikasi "...O`zbekiston xalqining munosib turmushini, huquqlarini va erkinliklarini kafolatlash, milliy qadriyatlarimiz va madaniyatimiz qayta tiklanishi, insonning ma`naviy-axloqiy barkamolligini ta`minlash..."¹ ga qaratilgandir.

Mustaqil milliy davlatchiligimiz, avvalambor daxlsiz yer kengliklariga ega bo`lishimiz, so`ngra, davlat tili sifatida – o`zbek tilini qabul qilishimiz, Prezidentlik institutini ta`sis etishimiz, ma`muriy-hududiy qismlarni o`z tariximizga suyangan holda – viloyat va tuman deb atashimiz hamda ularda hokimlik lavozimini o`rnatishimiz, xalqaro hamjamiyat tomonidan suveren davlat sifatida tan olinishimiz va albatta, o`z Konstitutsiyamizga ega bo`lishimizdadir.

Muayyan bir davlatning ma`muriy hududiy tuzilishini o`rganishda ma`muriy hududiy tuzilish tushunchasi bilan birga davlat tuzilishi shakli tushunchasiga ham e`tibor qaratish lozim. Chunki, bu tushunchalar mazmunan bir-biriga bog`liq bo`lib, har doim biri ikkinchisini taqozo etib turadi. Davlat tuzilishi davlat shaklining muhim bir turi hisoblanadi. Davlat tuzilishi shu davlat oldida turgan vazifalar va maqsadalar bilan belgilanadi.

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov davlat qurilishi va uning tuzilishi asoslariga bag`ishlangan bir qator asarlarida, xususan "O`zbekiston XXI asrga intilmoqda" degan kitobida bizda davlat tuzilishi yer kengliklarini viloyat, tuman va shaharlarga bo`linishi sun'iy ravishda, o`z-o`zidan kelib chiqqan "texnik" jarayon bo`lmay, balki respublikaning

¹ Karimov I.A. O`zbekiston: milliy istiqlool, iqtisod, siyosat, mafkura. T.1. – T.: O`zbekiston, 1996 – 123-bet.

ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishdagi asosiy strategik maqsadni amalga oshiruvchi tayanch qismlariga ajratilishi ekanligiga alohida urg'u bergan.¹

Davlat tuzilishi shakliga qo'yidagi turli xil omillar ta'sir etadi:

- 1) davlat va jamiyat oldida turgan iqtisodiy vazifalar
- 3) davlatdagi siyosiy kuchlarning o'zaro nisbati
- 4) davlat hududida istiqomat qilayotgan aholining ko'p millatliligi va o'zaro munosabati
- 5) davlat hududining katta yoki kichikligi ta'sir etadi.
- 6) uzoq yillar davomida shakllangan tarixiy an'analar
- 7) jamiyatdagi mavjud ijtimoiy ong

Shunday qilib, **davlat tuzilishi shakli** deganda, davlat hokimiyatining ma'muriy-hududiy uyushuvi, davlat va uni tashkil etgan hududlarning, ayrim qismlarning, markaziy va mahalliy idoralar orasidagi munosabatlarning tabiati tushuniladi.²

Davlat tuzilishi - davlatning ma'muriy-hududiy bo'linish tamoyillari va tuzilishini hamda ma'muriy hududiy birliklarning yuridik maqomini, davlatning markaziy organlari bilan mazkur organlarning joylardagi mahalliy organlar bilan o'zaro munosabatlari qanday xususiyatlardan iborat ekanligini qamrab oluvchi tushunchadir.

Milliy-davlat tuzilishi - davlatning tuzilishi, uning ma'muriy-hududiy bo'linishi, davlat bilan uning tarkibiy qismlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar, davlat va uning tarkibiy qismlarining huquqiy holati, ularning vakolatlari xarakteri va hajmidan iborat ekanligi tushuniladi.³

Ma'muriy – hududiy tuzilish – davlat tuzilishi tushunchasining tarkibiy qismi bo'lib, davlat o'z vazifa va funktsiyalarini bajarishi uchun,

¹ Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. –T.:O'zbekiston, 1999, 117-bet

² U.Tadjixanov, H.Odilqoriev, A.Saidov. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy huquqi. 436-437- bet . Toshkent 2001y. IIV. Akademiyasi.

³ U.Tadjixanov, H.Odilqoriev, A.Saidov. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy huquqi. 435- bet . Toshkent 2001y. IIV. Akademiyasi.

muayyan cheklangan hududini ma'lum bir hududiy (ma'muriy-hududiy) bo'laklarga bo'linishini tushunish lozim. Ushbu hududiy bo'laklarda davlat apparati mahalliy organlarining strukturasi tuziladi. Shuning uchun davlatning hududiy tuzilishini, ma'muriy-hududiy tuzilish deb ataymiz.

Davlatni hududiy jihatdan tashkilashtirish o'z *maqsadi* va *vazifalariga* ko'ra nafaqat *ma'muriy-hududiy*, balki:

iqtisodiy-hududiy (masalan, erkin savdo qiluvchi zonalar);

harbiy-hududiy (masalan, O'zbekistonda tashkil etilgan Toshkent, Markaziy, Shimoliy, Janubiy, G'arbiy, Sharqiy harbiy okruglar);

siyosiy-hududiy (masalan, barqarorlikni saqlash va etnik masalalarni hal qilish uchun ajratiladigan mintaqalar);

ekologik-hududiy (masalan, Orol va Orol bo'yi ekologik inqiroz holatidagi alohida muhofozaga muhtoj bo'lgan yer kengligining quruqlik qismi va suv akvatoriyasi) shakllarda namoyon bo'lishi mumkin.¹

Federativ davlatlarda ma'muriy – hududiy birliklar o'zining muayyan hokimiyat organlari tizimiga, Konstitutsiya va qonunchiligiga, shuningdek, hududiy ramzlariga ega bo'ladi.

Ma'muriy – hududiy birlik – davlat ma'muriy –hududiy tuzilishi tizimining mustaqil tarkibiy qismi bo'lib, bir necha pog'onada tashkil etilishi mumkin. Masalan, O'zbekiston Respublikasi ham ko'p pog'onali ma'muriy hududiy tuzilishga ega (viloyat, tuman, qishloq yoki ovul).

Tegishli ma'muriy hududdni alohida ma'muriy-hududiy birlik sifatida e'tirof etish uchun faqat davlat hokimiyati mahalliy organlarni tashkil etish bilan chegaralanmasdan, balki mahalliy hududning iqtisodiy-madaniy rivojlanganligi darajasi, aholining hududiy uyushishi bilan ham bog'liqdir.

Bizga Davlat va huquq nazariyasi fanidan ma'lumki, davlat ichki tuzilishiga, uning tarkibiy qismlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlariga, davlatning markaziy va mahalliy hokimiyat organlari o'rtasidagi

¹ O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy huquqi.(mualliflar jamoasi) TDYUI. Toshkent "Moliya" 2002y. 377- bet

munosabatlarga, ma'muriy-hududiy birliklarning yuridik mavqeiga ko'ra, davlat tuzilishi odatda uch shaklga bo'linadi:

- unitar;
- federativ;
- konfederativ;

Unitar (fransuzcha «unitaire» - “yagona”) davlat tarkibida hech qanday davlat tuzilmalari mavjud bo'lmagan yaxlit davlatdir. Hozir jahonda eng ko'p tarqalgan davlat tuzilish shakllaridan biridir. Ular qatoriga Italiya, Yaponiya, Ukraina va boshqalar kiradi. Unitar davlatlar huquqiy jihatdan teng bo'lgan ma'muriy-hududiy qismlarga (viloyatlar, regionlar, guberniya, grafliklarga) bo'linadi. O'zbekiston Respublikasi ham unitar davlat hisoblanadi.

Unitar davlatlarning aksariyati muayyan ma'muriy-hududiy bo'linishga (Masalan: O'zbekiston Respublikasi viloyatlar, tumanlar, shaharlar, shaharchalar, qishloqlar va ovullar) ega bo'ladi. Biroq mazkur hududiy qismlar davlat tuzilmasi alomatlariga ega emas. Unitar davlatlar qo'yidagi huquqiy belgilarga ega:

- unitar davlatlarda yagona davlat hokimiyati oliy organlar tizimi mavjudligi
- yagona Konstitutsiya va qonunchilik tizimiga egaligi.
- yagona fuqarolikka
- unitar davlatlar yagona bo'linmas va daxlsiz hududga ega bo'lishi

Barcha unitar davlatlarga xos bo'lgan markazlashtirish turli shakl va darajalarda namoyon bo'lishi mumkin. Ba'zi mamlakatlarda umuman mahalliy idorlar mavjud bo'lmay, ma'muriy-hududiy o'lkalar markaziy hokimiyat tayinlaydigan vakillar tomonidan boshqariladi. Boshqa davlatlarda esa mahalliy idoralar tuzilib (jumladan, vakillik organlari

tuziladi) ular markaziy hokimiyat oldida (bevosita yoki bilvosita) hisobot beradilar.

Markaziy hokimiyat bilan mahalliy hokimiyat idoralari o`rtasidagi munosabatning xususiyatlaridan kelib chiqib, unitar davlatlar markazlashgan, nisbiy markazlashgan va markazlashmagan turlarga bo`linadi.

Markazlashgan unitar davlatlarda ma'muriy-hududiy birliklarni boshqarish davlat hokimiyati markaziy organlari tomonidan bevosita amalga oshiriladi. Bunda markazdan tayinlanadigan mansabdor shaxslar tegishli ma'muriy hududni boshqaradi. Bunga xorijdan misol tariqasida Indoneziya davlatini keltirish mumkin.

Nisbiy markazlashgan unitar davlatlarda ma'muriy-hududiy birliklarni boshqarish bir vaqtni o`zida markazdan tayinlanadigan mansabdor shaxslar hamda mahalliy vakillik organlari tomonidan amalga oshiriladi. Bunga Fransiya mahalliy boshqaruvidagi markazdan tayinlanadigan prefektlar va munitsipal Kengashlarni misol qilib keltirish mumkin. Shuningdek, O`zbekiston Respublikasini ham aynan shu turdagi unitar davlatlar qatoriga kiritamiz. Bunga isbot tariqasida Prezidentimiz I.A.Karimov 1999-2000 yillarda bo`lib o`tgan viloyatlar va Qoraqolpog`iston Respublikasi saylovchilari bilan uchrashuvlarida ma'muriy-hududiy tuzilishni to`g`ri tashkil etish, joylardagi vakillik va ijroiya hokimiyati organlarining huquqiy vakollatlarini oshirish Konstitutsiyamizda belgilangan imperativ shartlarni amaliy tadbiq qilishga olib kelishini bir necha bor uqtirib o`tganlarini keltirib o`tish mumkin¹.

Markazlashmagan unitar davlatlarda esa ma'muriy hududiy birliklar ancha mustaqil bo`lib, markazga umuman bo`ysunmaydi hamda boshqaruv

¹ Karimov I.A. Ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz – T.: O`zbekiston, 2000.

to`la-to`kis mahalliy vakillik organlari vakolat doirasiga kiritiladi. (Buyuk Britaniya grafliklaridagi mahalliy boshqaruvni saylab qo`yiladigan organlar amalga oshiradi.)

Unitar davlatlar yana tarkibidagi ma`muriy hududiy birliklarining huquqiy maqomi va xususiyatlariga ko`ra:

Oddiy unitar davlat. Bunday davlatlarning ma`muriy hududiy tuzilishi sodda bo`lib, ma`muriy hududiy birliklar bevosita markazga bo`ysunadi va huquqiy maqomi, nomlanishi hamda ijtimoiy tarkibi jihatdan aksariyat hollarda bir xil bo`lishi kuzataladi. Ularning tarkibida hududiy avtonomiyalar mavjud bo`lmaydi.

Murakkab unitar davlat. Ko`pchilik unitar davlatlarda bir yoki bir necha ma`muriy-hududiy birliklarga, o`lkalarga imtiyozli huquqiy maqom beriladi. Bunday unitar davlat ma`muriy avtonomiyaga ega bo`ladi. Qayd etilgan davlat tuzilishi shakli hududiy o`lkalarning maxsus manfaatlariga e`tibor berish zarur bo`lgan hollarda qo`l keladi. Bunday holat alohida millatning o`z taqdirini o`zi belgilashi, etnik va milliy kamsitilishini oldini olish, ozchilikni tashkil etuvchi millatlarning madaniyatini saqlab qolish va hokazolarda kuzatiladi. Mazkur avtonomiyalarda o`zini-o`zi boshqarish huquqi mamlakat aholisining boshqa qismiga qaraganda bir muncha kengroq bo`ladi. Lekin ularning mustaqilligi markaziy hokimiyat belgilagan doiradagina saqlab qolinadi. Amaliyotda ayrim hollarda bunday avtonomiyalar mustaqillik uchun kurash olib borishishlari kuzatilib, aksariyat hollarda ayanchli oqibatlar, jumladan fuqarolik urushlarini keltirib chiqarishi mumkin.

Avtonomiya bu – davlatning muayyan qismining ichki o`zini-o`zi boshqarishi bo`lib, bu qism davlatning boshqa qismlaridan ba`zi maxsus jihatlari, masalan tarixiy, madaniy, diniy, maishiy, til, jo`g`rofiy, ba`zan milliy jihatlari bilan farqlanadi. Demak avtonomiya, bu o`sha hududda zich

yashaydigan aholining tarixiy, madaniy, diniy, til, jo`g`rofiy, milliy va boshqa. xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etiladigan alohida siyosiy-hududiy birlikdir,

Avtonomiyaning turlari juda va shunga muvofiq ular:

- siyosiy avtonomiya,
- ma'muriy-hududiy yoki etnohududiy avtonomiya,
- madaniy-milliy avtonomiya:

O`zbekiston Respublikasi xam o`z davlat tuzilishi shakliga ko`ra murakkab, nisbiy markazlashgan unitar davlatdir. Sodda unitar davlatlar hududida boshqa mustaqil davlatlar bo`lmaydi. O`zbekiston Respublikasi murakkab tuzilishga ega ekanligining sababi, uning tarkibida alohida davlat tuzilmasi, ya'ni Qoraqalpog`iston Respublikasi mavjudligidir.

Unitar davlatlar ichidagi ma'muriy-hududiy bo`linmalar faqat mahalliy miqyosdagi masalalarni hal etish huquqiga ega, yagona markaziy davlat hokimiyatining kuchi davlatning butun hududida o`z ta'sirini ko`rsatadi.

O`zbekiston Respublikasi unitar davlat bo`lib, davlat hokimiyati Konstitutsiyada hokimiyatning taqsimlanish tamoyiliga binoan mustahkamlangan. O`zbekiston Respublikasi hududiy jihatdan bo`linmas yagona davlatni tashkil etadi. Uning tarkibiga Qoraqalpog`iston Respublikasi, viloyatlar, tumanlar, shaharlar, shaharchalar, qishloqlar va ovullar kiradi.¹

Federativ davlat (lotincha « feodus»- “ittifoq”) unitar davlatga qaraganda murakkab tuzilishga ega bo`lib, uning sub'ektlari birmuncha siyosiy mustaqillikka ega bo`ladi.

¹ O`zbekiston Respublikasining davlat va ma'muriy tuzilishi. 1-tom. Toshkent 1996y. 13-bet. Huquq va boshqaruv sohasidagi xalqaro atamalar to`plami. Ruscha-o`zbekcha.

Federatsiya bu – davlatlar ittifoqi bo`lib, uning tarkibiga ittifoq huquqlari bilan rasmiy cheklangan, yuridik mustaqillikga ega bo`lgan davlat tuzilmalari kiradi. Federativ davlat unitar davlatdan farq qiladi, bu farq Federatsiya tarkibiga kirgan tarkibiy qismlarning ma'muriy hududiy bo`linma emas, balki davlat tuzilmalaridan iborat ekanligidadir.

Kishilik jamiyatining rivojlanishi, ilmiy-texnik taraqqiyot, yangi iqtisodiy muammolar va boshqa omillarning paydo bo`lishi natijasida yaqinlashuv (integratsiya) jarayonlari boshlanadi. Bular esa murakkab davlatlar va ular turlari bo`lmish federatsiyalar, konfederatsiyalar, hamdo`stliklar kabilarning barpo etilishiga olib keladi.¹

Ko`pincha “federativ davlat” termini o`rniga “ittifoq davlat”termini ham ishlatiladi(masalan, sobiq Yugoslaviya Ittifoqi). Federativ davlatlar tarkibiga kirgan davlat tuzilmalari turlicha nomlanadi Germaniyada erliklar, AQSH, Hindistonda shtatlar, Kanada va Pokistonda provintsiyalar, Birlashgan Arab Amirliklarida amirliklar, Shveysariyada kantonlar deb ataladi. Ilmiy adabiyotda va amaliyotda ularni umumlashtirib Federatsiya a`zolari yoki sub`ektlari deb atash keng tarqalgan.

Federatsiyalarni tashkil topilish asoslariga qarab ikki guruhga ajratish mumkin:

- shartnoma asoslangan,
- shartnomaga asoslanmagan

Shartnoma asosida tashkil topgan Federatsiya bu qoidaga ko`ra, bo`lajak Federatsiyaning a`zolari bo`lishi mumkin, bo`lgan mustaqil davlatlar o`rtasida tuzilgan shartnoma asosida tashkil topgan ittifoq davlatidir. Bunday Federatsiyalarga misol qilib, AQSh, Avstraliya va Malayziyalarni keltirish mumkin.

¹ U.Tadjixanov, H.Odilqoriev, A.Saidov. O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy huquqi. 438- bet . Toshkent 2001y. IIV. Akademiyasi

Shartnomaga asoslanmagan federatsiyalarda esa, davlat hokimiyati ma'muriy birliklarga kengroq huquqlarni berishi asosida, ular federatsiya sub'ektlariga aylanadi. Bunday o'zgarish avval unitar shaklda bo'lgan davlatning ixtiyoriga binoan amalga oshiriladi. Bunday federatsiyalarga misol qilib Hindiston, Nigeriyalarni keltirish mumkin. Bunday federatsiyaning sub'ektlari shartnomali Federatsiyalardan farq qilgan xolda, suverenitetga ega bo'lmaydilar, ular faqat ichki suverenitetga ega bo'ladilar.

Davlat tuzilishi shakli sifatida Federatsiya quyidagi asosiy belgilarga ega:

- federatsiya davlat tuzilmalaridan iborat bo'ladi;
- unitar davlatlardan farqli ularoq federatsiya hududi yaxlit hudud sifatida e'tirof etilmaydi;
- federatsiya sub'ektlari suveren mustaqil davlat emas, shuning uchun ajralib chiqish huquqi berilmaydi;
- federatsiya sub'ektlarida umumfederal Konstitutsiya va qonunlar bilan bir qatorda o'zlarining Konstitutsiya va qonunlariga ham ega bo'lishi mumkin;
- federativ davlatlarda federatsiya fuqaroligi bilan bir vaqtda federatsiya sub'ektlarining ham fuqaroligi mavjud bo'ladi.
- aksariyat hollarda federativ davlatlar ikki palatali parlament tizimiga ega bo'ladi.

Lekin bunday federativ davlatlar yagona federal qurolli kuchlar, moliya, soliq va pul tizimlariga ega bo'ladi. Federal idoralar yagona tashqi siyosatni amalga oshiradilar.

Federatsiya sharoitida eng muhim masala Federatsiya bilan uning sub'ektlari o'rtasida kompetentsiyalarning taqsimlanishi, bo'linishi hisoblanadi va ularni uchga ajratish mumkin:

1. Federatsiyaning mutloq vakolatlari

2. Federatsiya va uning sub'ektlari birgalikda hal etadigan masalalar bo'yicha vakolatlar

3. Federatsiya sub'ektlarining mutloq vakolatlari

Birinchi masala, ya'ni federatsiyaning mutloq vakolatini tashkil etuvchi masalalarga mudofaa, tashqi ishlar, pul muomalasi, soliqlar, federal organlarni tashkil etish, federatsiya bilan uning sub'ektlari, sub'ektlar o'rtasidagi nizolarni hal etish kabi masalalar kiradi.

Birgalikdagi kompetentsiyaga kiruvchi masalalarni Federatsiya ham, sub'ektlar hat hal qilishi mumkin, baribir ustuvorlik Federatsiya tomonda bo'ladi.

Federatsiya sub'ektlarining mutloq vakolatlariga kiruvchi masalalar qatoriga mahalliy organlarni tashkil etish, jamoat tartibini saqlash, yo'llar ko'rish, atrof - muhitni muhofazalash, mahalliy aktlar qabul qilish, madaniyat, ta'lim, tibbiyot masalalarini kiritish mumkin.

Konfederatsiya. Xorijiy maamlakatlarning hududiy davlat tuzilishi shakllari ichida xalqaro shartnomalar asosida tashkil topgan tuzilmalar ham mavjud. Bunday davlat-hududiy tuzilmalarni konfederatsiya deb atashadi.

Konfederatsiya bu – ma'lum bir vazifani bajarish uchun birlashgan mustaqil davlatlar ittifoqidir. Konfederatsiya Federatsiyadan farq qilgan holda, u ittifoq davlati emas, balki davlatlar ittifoqi hisoblanadi. Konfederatsiya iqtisodiy, siyosiy, harbiy, bojxona va boshqa maqsadlarda tuzilishi mumkin.

Konfederatsiya o'z oldiga qo'ygan maqsadiga erishish uchun va a'zo davlatlarning harakatlarini muvofiqlashtirish uchun oliy organlar tuzishi mumkin, biroq bu organlar a'zo davlatlarning hukumatlari bilan muloqotda bo'ladi, bevosita aholiga murojaat qilish huquqiga ega emas.

Konfederatsiya federatsiyaga nisbatan uncha mustahkam emas, chunki u odatda biron-bir masalalani hal etish ehtiyoji orqali tashkil etiladi. Tarixda

ham konfederatsiyalar uncha ko'p bo'lmagan, bo'lganlari ham keyinchalik yo federatsiyaga aylanishgan, yoki alohida-alohida unitar davlatlarga bo'linib ketishgan.

Undan tashqari jahon amaliyotida **davlatlarning hamkorlik shakllari** ham mavjuddir. Ularga qo'yidagilar kiradi: hamdo'stlik, hamjamiyat, ittifoqlar, uniyalar, protektorat.

Har qanday davlat o'z ma'muriy hududiy tuzilishini hal etishda turli xil omillar, shart-sharoitlarni inobatga olmasdan iloji yo'q. Shuning uchun tashkil etilayotgan har qanday ma'muriy hududiy birlik ma'lum bir prinsipial ahamiyatga ega bo'lgan qonuniyatlar, ustuvor ko'rsatkichlar asosida shakllantirilishi kerak. Ushbu ma'muriy-hududiy tuzilish prinsiplariga:

- Iqtisodiy prinsip;
- Siyosiy prinsip;
- Milliy-madaniy prinsip;
- fuqarolarning huquq va erkinliklarini bir xilda ta'minlash.
- davlat apparatini ommaga yaqinlashtirish.

Iqtisodiy prinsip. Tashkil etilayotgan ma'muriy-hududiy birlikning iqtisodiy potentsialini inobatga olish lozim. Bunda tegishli hudud sanoati, qishloq xo'jaligini rivojlanganlik darajasi, shuningdek, mahalliy hudud transportining salohiyati inobatga olinadi.

Siyosiy prinsip. Ma'muriy hududiy birliklar davlatning siyosiy strategik maqsadlaridan kelib chiqib tuzilishi shart. Har bir ma'muriy-hududiy birlik davlat hokimiyatini vazifa va funksiyalarini amalga oshirishda alohida ahamiyatga ega bo'ladi va yagona siyosiy hokimiyatni o'rnatish hamda saqlab turish uchun ko'maklashadi.

Milliy-madaniy prinsip. Ma'muriy-hududiy bo'linishda tegishli hudud aholisining milliy va etnik tarkibi, madaniyati, ijtimoiy xususiyatlari

inobatga olinadi. Davlat sarhadlarini ma'muriy-hududiy birliklarga ajratib, chegaralarini belgilashda bir millatga mansub aholini har xil ma'muriy – hududiy birlikda qolib ketmasligi ta'minlanib, ularni o'z madaniyati, urf-odatlarini va tilini saqlab qolish uchun sharoit yaratiladi. Bunday tadbirlar O'zbekiston Respublikasida ham milliy qadriyatlarimizning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olish, madaniy, diniy, tarixiy tomonlarga e'tibor berishni ta'minlaydi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 4-moddasi, 2-bandida quyidagi normalar mustahkamlangan: **“O'zbekiston Respublikasi o'z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlarini va an'analari hurmat qilinishini ta'minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi”.**

Fuqarolarning huquq va erkinliklarini bir xilda ta'minlash. Ma'muriy-hududiy tuzilishni amalga oshirishda, fuqarolar uchun teng demokratik sharoitlarni ta'minlab berish va ularning ehtiyojlarini qondirish, prinsiplari va omillari ham hisobga olinadi. Mazkur prinsip har bir ma'muriy-hududiy birlikda madaniy - oqartuv, tibbiy, savdo, maishiy xizmat mavjud bo'lishini taqozo etadi.¹

Davlat apparatini ommaga yaqinlashtirish. Ushbu prinsipning mazmuni aholi qatlamini davlat boshqaruviga keng jalb etish, davlat bilan fuqarolar o'rtasidagi aloqani mustahkamlashdan iborat bo'lib, davlat boshqaruvini osonlashtiradi.

¹ R.Qayumov. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy huquqi. Toshkent, “Adolat” 1998 y. 241-bet.

1.2. O`zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy tuzilishi.

O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 1-moddasiga muvofiq u suveren demokratik respublika bo`lib, mustaqil davlat hisoblanadi. "Mustaqillik" esa Prezidentimiz I.A.Karimov iborasi bilan aytganda, avvalom bor "huquq" demakdir. Chunki davlatimizning hozirgi ma'muriy-hududiy chegarasida birinchi bor O`zbekiston xalqi o`z moddiy va ma'naviy boyliklaridan o`z xohishicha, ya'ni o`zining Konstitutsiyasi va uning asosida qabul qilingan qonun hujjatlariga muvofiq ravishda jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish imkoniyati – "huquqi" yuzaga keldi. Endilikda, biz va bizning xalqimiz xom ashyo yetkazib beradigan chekka o`lkada emas, balki mustaqil ravishda o`z huquqimizni amalda tatbiq qila oladigan milliy suveren davlatda yashayotganimizni alohida ta'kidlash joizdir.

Har bir mustaqil va suveren davlatlar singari O`zbekiston Respublikasi ham o`z ma'muriy-hududiy va davlat tuzilishiga oid masalalarini mustaqil hal etadi. O`zbekiston Respublikasi uch pog`onali ma'muriy-hududiy bo`linishga asoslanadi.

O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XVI bobida O`zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy tuzilishini tartibga soluvchi normalar mustahkalangan. Konstitutsiyaning 68-moddasida **“O`zbekiston Respublikasi viloyatlar, tumanlar, shaharlar, shaharchalar, qishloqlar, ovullar, shuningdek Qoraqalpog`iston Respublikasidan iborat”**¹ ekanligi ko`rsatilgan.

Har bir davlatning ma'muriy-hududiy tuzilishini ilmiy asosda tashkil qilmaslik uning xavfsizligiga, barqarorligiga va albatta, taraqqiyotiga o`z

¹ Ozbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T.: 2012, 68-modda.

salbiy ta'sirini o'tkazmay qolmaydi. Shuning uchun ham Prezidentimiz I.A.Karimov 1999-2000 yillarda bo'lib o'tgan viloyatlar va Qoraqalpog'iston Respublikasi saylovchilari bilan uchrashuvlarida ma'muriy-hududiy tuzilishni to'g'ri tashkil etish, joylardagi vakillik va ijroiya hokimiyati organlarining huquqiy vakollatlarini oshirish Konstitutsiyamizda belgilangan imperativ shartlarni amaliy tadbiq qilishga olib kelishini bir necha bor uqtirib o'tganlar¹. Konstitutsiyamiz me'yorlariga asoslangan holda O'zbekiston Respublikasi yer kengligini ma'muriy-hududiy qismlarga bo'linishi aholini davlat bilan yaqinlashuvida, fuqarolarni davlat va jamiyat qurilishidagi faolligini oshirishda, bozor iqtisodiyotini rivojlantirishda, aholining milliy-etnik huquqlarini tenglashtirishda va ularning xohish-irodalarini inobatga olishda xizmat qildi.

O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy tuzilish tizimi hokimiyat va boshqaruv organlarining huquqiy holatiga, ularning huquq va majburiyatlarini ifoda etilishiga ko'ra tashkil etilgandir. Unda har bir ma'muriy-hududiy birlik xo'jalik yurgazishning o'ziga xos tomonlari, aholisining milliy va etnik tarkibi, soni, madaniyati, azaliy urf-odatlar va an'analari, ishlab chiqarish salohiyati va ijtimoiy qudratiga qarab ham ajratilgandir.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 68-moddasiga binoan O'zbekiston Respublikasi viloyatlar, tumanlar, shaharchalar, qishloqlar, ovullar, shuningdek Qoraqalpog'iston Respublikasidan iborat. Respublika Makroiqtisodiyot va statistika vazirligi tomonidan chop etilgan "O'zbekiston Respublikasi aholisi – 2000" nomli statistik to'plamga muvofiq 2000 yil 1

¹ Karimov I.A. Ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz – T.: O'zbekiston, 2000. 112-bet.

yanvarga kelib respublikamiz 1826 ta ma'muriy-hududiy qismlardan iborat. Ulardan 12 tasi viloyat va Qoraqalpog'iston Respublikasi, 182 tasi qishloq va shahar tumanlari, 55 tasi respublika va viloyat bo'ysunuvidagi shaharlar, 120 tasi shaharchalar hamda 1456 tasi qishloq va ovullar fuqarolar yig'inidan iborat bo'lgan.

Vazirlar Mahkamasining 1997 yil 30 sentabr "Shahar va tuman hokimliklari apparati tuzilishini takomillashtirish to'g'risida"gi qaroriga muvofiq 26 ta viloyat bo'ysunuvidagi shaharlar tuman bo'ysunuviga o'tkazildi va ularning soni 28 taga tushib qoldi. Tuman bo'ysunuvidagi shaharlarda shahar hokimligi lavozimlari qisqartirilib, ular tuman hokimligi qoshida faoliyat yurgazadigan bo'ldilar.

Viloyat bo'ysunuvidagi shaharlarning huquqiy maqomidagi ushbu o'zgartirishlar davlat siyosatidan kelib chiqqan holda, mahalliy hokimiyatlarning ko'pgina vakolatlarini fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish idoralariga, xususan mahallalarga topshirish oqibatida yuz berdi.

O'zbekiston Respublikasida ma'muriy-hududiy tuzilish, toponomik ob'ektlarga nom berish va ularning nomlarini o'zgartirish masalalarini hal etish tartibi to'g'risidagi qonunning 10-moddasiga ko'ra "... viloyat bo'ysunuvidagi shaharlar turkumiga, qoida tariqasida, kamida 30 ming aholisi bo'lgan, muhim ma'muriy ahamiyat kasb etadigan, istiqbolli iqtisodiy va madaniy markazlar deb hisoblangan shaharlar kiritilishi mumkin"¹. Shunisi e'tiborliki, qonunda shaharlarning huquqiy maqomini ko'tarish haqida huquqiy me'yorlar mavjud, ammo ularning maqomini tushirish haqida hech qanday me'yorlar berilmagan.

Yuqorida qayd etilgan Qonunning IV bobi 30-moddasiga muvofiq "aholi punktlarini ma'lum bir turkumdan ikkinchi bir turkumga o'tkazish

¹ O'zbekistonning yangi qonunlari. T.: "Adolat", 2001. 67-bet.

tegishli viloyat hokimlarining iltimosiga asosan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining taklifiga muvofiq Oliy Majlis tomonidan amalga oshiriladi"¹.

Davlatning ma'muriy-hududiy tuzilishi davlat qurilishining umumiy masalalarini to'laqonli amalga oshirish nuqtai nazaridan hududiy tashkillashtirish ekan, ularda davlat boshqaruvi markaziy davlat organlari → mahalliy hokimiyatlar → o'zini o'zi boshqarish organlari orqali amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaning 68-moddasiga muvofiq ravishda ma'muriy-hududiy tuzilishga qishloq va ovullarning soni emas, ulardagi balki o'zini-o'zi boshqaruvchi qishloq va ovullarning fuqarolar yig'ini sonining keltirilishi to'g'ri bo'ladi. Chunki 1999 yil 14 aprelda qabul qilingan yangi tahrirdagi "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi qonunning 5-moddasiga binoan ma'muriy-hududiy boshqarish vakolati qishloq va ovullarga emas, balki ulardagi fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining hududiy birliklariga topshirilgandir².

O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy qismlarini, ularning huquqiy maqomiga ko'ra 3 toifaga ajratib guruhlashtirish mumkin.

1. *Yuqori toifadagi qismlar* – Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri;

2. *O'rta toifadagi qismlar* – qishloq va shahar tumanlari, viloyat bo'ysunuvidagi shaharlar;

3. *Quyi toifadagi qismlar* – tuman bo'ysunuvidagi shaharlar, shaharchalar, qishloq va ovullarning fuqarolar yig'ini.

Yuqori toifadagi qismlar. Davlat qurilishi shakliga ko'ra O'zbekiston Respublikasi unitar davlatdir. Shuning uchun ham o'ziga xos alohida

¹ O'zbekistonnig yangi qonunlari. T.: "Adolat", 2001. 13-son. 68-bet.

² O'zbekistonnig yangi qonunlari. T.: "Adolat", 1999. 9-son. 46-bet.

huquqiy maqomga ega bo`lgan Qoraqalpog`iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri darajasidagi maqomga tenglashtirilgandir. Davlatning ma'muriy-hududiy qismlari ijtimoiy hayotning hamma jabhalarini o`z ichiga oladi. Milliy-etnik, ijtimoiy-iqtisodiy salohiyati va siyosiy ahamiyatiga ko`ra yuqori toifadagi qismlar bir-biriga yaqin turadi.

Viloyatlar eng yirik ma'muriy-hududiy qismlardan bo`lib, O`zbekistonda ularning soni 12 ta. "Viloyat" atamasi "oblast" so`zining sinonimi bo`lib, oblastdan ko`ra ma'muriy-hududiy tuzilishning aynan ma'nosini beradi. Chunki "oblast" nafaqat ma'muriy birlikka nisbatan, balki tabiiy, iqtisodiy, harbiy birliklarga nisbatan ham qo`llaniladi. "Viloyat" esa ma'lum bir hududga nisbatan qo`llanilib, milliy qadriyatlarimizni hamda tariximizni to`liq aks ettiruvchi atamadir. Mamlakatimiz viloyatlari ishlab chiqarish kuchlarining ahvoli, ularning joylanish xarakteri, transport va aloqa kommunikatsiyalarining rivojlanishi, joylardagi boshqaruvning tashkiliy tuzilishini aks ettiradi.

O`rta va quyi toifadagi ma'muriy – hududiy qismlar viloyatlar tarkibiga kirib, muhim tashkiliy vazifalarni bajaradi. Ular davlat vakillik organlari va boshqaruv idoralari bilan aloqa bog`lovchi yagona tizim hisoblanadi va mahalliy hokimiyatlarga rahbarlik qilishning hamda ularni vatanimiz manfaatlaridan kelib chiqqan holda birlashtirishni amalga oshiradi.

Toshkent shahri. Aholisining soni 2,3 million kishidan iborat bo`lib, unda 100 dan ziyod millat va elatlar yashaydi. Iqtisodiy salohiyati (mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotining 16%, sanoat mahsulotining 20%), fan va madaniyat o`chog`i (6 ta universitet va 23 ta institut), markaziy davlat boshqaruv idoralarining deyarli barchasi joylashganligi uchun ham poytaxt shahar huquqiy maqomiga ko`ra viloyat darajasidadir. Uning tarkibida 11 ta shahar tumani va 445 ta o`zini o`zi boshqaradigan fuqarolar yig`ini – mahallalar mavjud.

Qoraqalpog'iston Respublikasi – O'zbekiston Respublikasi tarkibiga kiruvchi suveren respublika. U ham o'zining ijtimoiy – iqtisodiy salohiyati va milliy tarkibiga ko'ra yuqori toifadagi huquqiy maqomga ega. Ushbu huquqiy maqom Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitutsiyasi bilan belgilangan. Maydoni 164,9 ming kv. km. aholisi 1,5 million kishi. U 15 qishloq tumani, 12 shahar, 16 shaharcha va 120 ovullarni birlashtiruvchi fuqarolarning o'zini o'zi boshqaruvchi ma'muriy – hududiy qismlarga bo'lingan. Poytaxti – Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'ysunuvidagi Nukus shahridir.

O'rta toifadagi qismlardagi ma'muriy-hududiy birliklarning boshqaruvida ham mahalliy hokimiyatlar o'z tuzilmasiga ega bo'lib, ularning tarkibida o'zini o'zi boshqaruv idoralari faoliyat yurgizadilar. 2001 yil 1 martga kelib O'zbekistonda 164 qishloq va 19 ta shahar tumanlari mavjud bo'lgan.


Tuman – temuriylar davrida qo'llanilgan turkiy ibora bo'lib, 10 ming va undan ortiq askar yetkazib berish imkoniyatiga ega bo'lgan ma'muriy-hududiy qismlar tushiniladi. Tumanlar joylardagi ijtimoiy, iqtisodiy, xo'jalik va madaniy masalalarni hal qilishga bevosita rahbarlik qiladigan bo'g'inlardir. Mamlakatimizda ma'muriy-hududiy o'zgarishlar avvalom bor qishloq tumanlari chegarasining o'zgarishi bilan amalga oshiriladi.

Konstitutsiyamiz me'yorlariga asoslangan holda O'zbekiston Respublikasi yer kengligini ma'muriy-hududiy qismlarga bo'linishi aholini davlat bilan yaqinlashuvida, fuqarolarni davlat va jamiyat qurilishidagi faolligini oshirishda, bozor iqtisodiyotini rivojlantirishda, aholining milliy-etnik huquqlarini tenglashtirishda va ularning xohish-irodalarini inobatga olishda xizmat qildi.

O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy tuzilish tizimi hokimiyat va boshqaruv organlarining huquqiy holatiga, ularning huquq va

majburiyatlarini ifoda etilishiga ko'ra tashkil etilgandir. Unda har bir ma'muriy-hududiy birlik xo'jalik yurgazishning o'ziga xos tomonlari, aholisining milliy va etnik tarkibi, soni, madaniyati, azaliy urf-odatlar va an'analariga qarab ham ajratilgandir. Quyidagi rasmda O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy tuzilishi ko'rsatilgan: **1-rasm.**

O'zbekiston Respublikasi ma'muriy-hududiy tuzilishining tizimi



Viloyatlar bo'ysinuvidagi shaharlar. Umuman shaharlar aholi manzilgohlari bo'lib, u boshqa ma'muriy-hududiy bo'linmalarga nisbatan yaxlitligi, sanoat va xizmat ko'rsatish sohasining agrar sohaga nisbatan ustun turishi bilan ajralib turadi. Qonun bo'yicha 30 ming kishidan ko'p aholisi bo'lgan bunday ijtimoiy-iqtisodiy shaharlar o'z huquqiy maqomiga ko'ra ikki guruhga ajratiladi:

- 1) Viloyat markazlari hisoblangan shaharlar;
- 2) Viloyat bo'ysinuvidagi shaharlar.

Ulardagi boshqaruv idoralarining tuzilishi va tarkibi bir-biridan farq qiladi.

Quyida to'fida qismlarga o'z mahalliy hokimiyatlariga ega bo'lmagan va asosan, mahalliy o'zini o'zi boshqaruv idoralari orqali ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladigan ma'muriy-hududiy bo'linmalar kiradi.

Tuman bo'ysinuvidagi shaharlarga sanoat korxonalari, kommunal xo'jalik, uy-joy jamg'armasi, ijtimoiy va madaniy muassasalari, savdo va maishiy xizmat ko'rsatish korxonalari mavjud bo'lgan, aholisi 7 ming kishidan kam bo'lmagan va ularning aksariyati noqishloq xo'jaligi tarmoqlarida band bo'lgan aholi punktlari kiradi. Ushbu huquqiy maqomga ega bo'lish uchun aholi punkti ma'muriy ahamiyat kasb etishi va istiqbolli yo'nalishlari ham bo'lishi talab etiladi. Ularning soni 2001 yilga kelib 91 taga etgan.¹

Shaharchalar. Aholisining soni 2 000 kishidan kam bo'lmagan sanoat korxonalari, qurilishlar, temir yo'l stantsiyalari va boshqa muhim ob'ektlar yaqinida joylashgan aholi punktlari kiradi. Ularning soni birmuncha kamayib Vazirlar Mahkamasining 1997 yil 30 sentabrdagi 459-sonli qaroriga muvofiq 113 tadan 108 taga tushib qolgan.²

¹ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga sharh. IIV.Akademiyasi. Toshkent O'zbekiston 2001y. 354bet.

² R.Qayumov. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy huquqi. Toshkent, "Adolat" 1998 y. 241-bet.

Qishloq va ovullarning shaharchalardan farqi ularda yashovchi aholi sonining eng kam miqdori belgilanmaganligi va mehnatga qobiliyatli kishilarning aksariyat qismi qishloq xo'jaligi bilan band bo'lganligidadir. Qoraqalpog'iston Respublikasi va Navoiy viloyati aholi punktlarining aksariyati "ovul" deb nomlansa, qolgan viloyatlarda "qishloq" deb yuritiladi. O'zbekistonda 11,8 mingdan ortiq qishloq va ovullar 1451 o'zini o'zi boshqaruvi fuqarolar yig'inlariga birlashtirilgan.

O'zbekiston Respublikasi "...O'zbekiston xalqining munosib turmushini, huquqlarini va erkinliklarini kafolatlash, milliy qadriyatlarimiz va madaniyatimiz qayta tiklanishi, insonning ma'naviy-axloqiy barkamolligini ta'minlash..."¹ ga qaratilgandir.

Mustaqil milliy davlatchiligimiz, avvalambor daxlsiz yer kengliklariga ega bo'lishimiz, so'ngra, davlat tili sifatida – o'zbek tilini qabul qilishimiz, Prezidentlik institutini ta'sis etishimiz, ma'muriy-hududiy qismlarni o'z tariximizga suyangan holda – viloyat va tuman deb atashimiz hamda ularda hokimlik lavozimini o'rnatishimiz, xalqaro hamjamiyat tomonidan suveren davlat sifatida tan olinishimiz va albatta, o'z Konstitutsiyamizga ega bo'lishimizdadir.

¹ Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqloq, iqtisod,siyosat, mafkura. T.1. – T.: O'zbekiston, 1996 – 123-bet.

1.3. Ma'muriy-hududiy qismlarni tashkil qilish, o'zgartirish va tugatish tartibi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 69-moddasiga binoan Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahrining chegaralarini o'zgartirish, shuningdek viloyatlar, shaharlar, tumanlar tashkil qilish va ularni tugatish O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining roziligi bilan amalga oshiriladi.

1999 yil 20 avgustda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi "Davlat chegarasi to'g'risida"gi qonunning 3-moddasiga muvofiq, davlat chegarasi uning hududi doirasidagi yer kengliklarini (quruqlikda, suvda, yer ostida, havo bo'shlig'ida) belgilovchi chiziqdan va bu chiziq bo'ylab o'tuvchi vertikal (ko'ndalang) sathdan iboratdir.

Mustaqil milliy davlatchiligimiz, avvalambor daxlsiz yer kengliklariga ega bo'lishimiz, so'ngra, davlat tili sifatida – o'zbek tilini qabul qilishimiz, Prezidentlik institutini ta'sis etishimiz, ma'muriy-hududiy qismlarni o'z tariximizga suyangen holda – viloyat va tuman deb atashimiz hamda ularda hokimlik lavozimini o'rnatishimiz, xalqaro hamjamiyat tomonidan suveren davlat sifatida tan olinishimiz va albatta, o'z Konstitutsiyamizga ega bo'lishimizdadir.

Mamlakatimizning yuqori toifadagi ma'muriy-hududiy qismlari- viloyatlar va Qoraqalpog'iston Respublikasi chegaralarining aksariyat qismi davlat chegaralaridan iboratdir. Shuning uchun ham "Davlat chegarasi to'g'risida"gi qonun me'yorlari ma'muriy-hududiy qismlarning chegaralariga oid masalalarni ham qamrab oladi. Ushbu Qonunning 5-moddasiga binoan Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyat, qishloq tumanlari chegaralari davlat chegaralaridan o'tadigan bo'lsa, ularni belgilash va

o'zgartirish xalqaro shartnomalarga asosan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan amalga oshiriladi.

Davlat chegarasi delimitatsiya (lotincha tilida "delimitatio" – chegaralash, ayirboshlash) va demarkatsiya (frantsuz tilida "demarcation" – chegara belgilarini qo'yish) qilinadi, ya'ni ikki davlat o'rtasida chegara chiziqlari o'tkaziladi va tegishli belgilar qo'yiladi. Davlat chegarasini belgilash, o'zgartirish, himoya qilish va qo'riqlash umumsiyosiy masalalar toifasiga kirib, O'zbekiston Respublikasi markaziy davlat organlari tomonidan belgilangan normalarda va tartiblarda amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi ma'muriy-hududiy qismlarning ichki chegaralarini o'zgartirish milliy qonunchilikka asosan tartibga solinadi. Masalan, "O'zbekiston Respublikasida ma'muriy-hududiy tuzilish, topologik ob'ektlarga nom berish va ularning nomlarini o'zgartirish masalalarini hal etish tarkibi to'g'risida"gi qonuning 5-moddasiga ko'ra, yuqori huquqiy toifaga kiruvchi viloyatlar chegaralarini belgilash, o'zgartirish, tashkil qilish va tugatish ushbu ma'muriy-hududiy qismlarning mahalliy boshqaruv organlari iltimosnomasiga ko'ra va Vazirlar Mahkamasining taklifiga muvofiq Oliy Majlis tomonidan amalga oshiriladi.

Ko'p bosqichli tizimga ega bo'lgan ushbu huquqiy jarayon o'ta nozik davlat ahamiyatiga molik masalalar toifasiga kiradi. Chunki viloyat va respublika chegaralarini o'zgartirish, ya'ni viloyatlarning bo'linishi yoki qo'shilishi nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy, balki siyosiy va milliy-etnik muammolarni keltirib chiqarishi mumkin.

Qoraqalpog'iston Respublikasi chegaralarini o'zgartirish Juqorg'i Kenges qarori asosida Oliy Majlis tomonidan amalga oshiriladi. Chunki, O'zbekiston Respublikasi yagona unitar shakldagi mustaqil davlat bo'lgani uchun ham Qoraqalpog'iston Respublikasi uning davlat qurilishi, iqtisodiy

rivojlanishi, xo`jalik va ijtimoiy-madaniy qurilishi kabi barcha jabhalardagi umumiy masalalarni birgalikda hal qilishi maqsadga muvofiqdir.

Viloyatlarni tuzish, tashkil qilish, chegaralarini o`zgartirish yoki tugatish masalalari tegishli viloyat vakillik idoralarning tavsiyasi asosida Vazirlar Mahkamasining taklifiga ko`ra Oliy Majlis tomonidan amalga oshiriladi. Zarur hollarda mazkur masala bo`yicha tegishli viloyatlarda referendum o`tkazilishi mumkin.

Viloyat eng yirik ma`muriy-hududiy bo`linma sifatida o`rta va quyi qismlarga nisbatan bir muncha barqaror hisoblanadi. Viloyat ularning tashkil etilishi, chegaralarining o`zgartirilishi va tugatilishi uchun ham siyosiy, ham iqtisodiy, ham ijtimoiy, ham ma`naviy, ham milliy-etnik, ham huquqiy asoslar mavjud bo`lishi talab qilinadi.

Qishloq va shahar tumanlarini tuzish ham muhim huquqiy, iqtisodiy va siyosiy masalalar darajasidagi davlat faoliyatiga kiradi. Shuning uchun ularni tuzish yoki tugatish yiriklashtirilayotgan yoki tugatilayotgan tuman Kengashlari tavsiyasi va Vazirlar Mahkamasining taklifiga binoan Oliy Majlis tomonidan amalga oshiriladi¹.

Shaharlarni Respublika miqyosidagi shaharlar toifasiga kiritish tegishli shahar va viloyat halq deputatlari Kengashi tavsiyasiga binoan Vazirlar Maxkamasini kiritadigan taklifiga ko`ra Oliy Majlis tomonidan amalga oshiriladi. Xuddi shunday jarayon shaharlarni viloyat toifasidagi shaharlarga kirgazishda ham qo`llaniladi.

Qoraqalpog`iston Respublikasida shaharlarni quyi toifadan yuqori toifaga o`tkazish Juqorg`i Kengesning tavsiyasiga asosan Vazirlar Mahkamasini kiritadigan taklifiga ko`ra Oliy Majlis tomonidan amalga oshirish qonunchilikda ko`zda tutilgan.

¹ U.Tadjixanov, H.Odilqoriev, A.Saidov.O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy huquqi., "Sharq" Toshkent 2001y. IIV. Akademiyasi. 245-bet.

II-Bob. Qoraqalpog'iston Respublikasining konstitutsiviy-huquqiy maqomi.

2.1. Qoraqalpog'iston Respublikasi O'zbekiston Respublikasi tarkibidagi suveren davlat.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XVII bobi "Qoraqalpog'iston Respublikasi" deb nomlangan. Mazkur bob 6 modddan iborat bo'lib, "Suveren Qoraqalpog'iston Respublikasi O'zbekiston Respublikasi tarkibiga kiradi va Qoraqalpog'iston Respublikasining suvereniteti O'zbekiston Respublikasi tomonidan muhofaza etiladi"¹ deyiladi. Asosiy qonunning 70-moddasi 1992 yil 9 yanvarda Qoraqalpog'iston Respublikasi tashkil topganligini va 1993 yil 9 aprelda qabul qilingan Asosiy Qonuni bilan uning O'zbekiston Respublikasi tarkibida suverenligini tasdiqlaydi. Suveren Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilingan kun xalq bayrami deb e'lon qilindi. Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitutsiyasining I bobi "Davlat suvereniteti" deb nomlanib, uning 1-moddasida Qoraqalpog'iston – O'zbekiston Respublikasi tarkibiga kiruvchi suveren demokratik respublikadir, deb belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 71-moddasida, Qoraqalpog'iston Respublikasining o'z Konstitutsiyasiga ega bo'lishligi, uning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga zid bo'lmasligi ko'rsatilgan. Shuni ta'kidlash joizki, Sobiq Ittifoq davrida Avtonom Respublikalarning Konstitutsiyalari ular qaysi Respublikalar tarkibiga kiritilgan bo'lsa o'sha davlat hokimiyatining oliy organlari tomonidan tasdiqlanishi shart edi. O'zbekiston o'z mustaqilligini qo'lga kiritib bu adolatsizlikka chek qo'ydi. Qoraqalpog'iston suveren Respublikasi bilan

¹ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 70-moddasi. T., "O'zbekiston", 2010 yil.

mustaqil O'zbekiston Respublikasining bir-butun yaxlitligi mustahkamlangan.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitutsiyasining 70-moddasining 15-bandida "O'zbekiston Respublikasining Oliy davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari hujjatlarining O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaga muvofiqligi haqida O'zbekiston Konstitutsiyaviy sudiga taklif kiritish"¹ huquqi belgilangan. 81-moddasida esa Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi raisining vakolatlari jumlasiga, "O'zbekiston Respublikasi qonunlarini va Oliy Majlisning boshqa qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va boshqa hujjatlarini turmushga tatbiq etishni tashkil qiladi"² deyilgan.

Ushbu konstitutsiyaviy normalardan xulosa qilib aytish mumkinki, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga zid kelsa, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari amalda bo'ladi. Qoraqalpog'iston Respublikasida O'zbekiston va Qoraqalpog'iston Respublikasining Konstitutsiyalari va qonunlarining ustunligi so'zsiz tan olinadi. O'zbekiston fuqarolari uchun majburiy bo'lgan qonunlar uning tarkibiga kiruvchi Qoraqalpog'iston hududida ham majburiydir.

Qoraqalpog'iston Respublikasining ma'muriy-hududiy tuzilishini uning o'zi ko'rib chiqadi, davlat hokimiyati organlari va boshqaruv tizimini belgilaydi. O'zbekiston Respublikasi davlat siyosatiga mos holda o'z siyosatini yurgizadi. Qoraqalpog'iston Respublikasining hududi bo'linmas va daxlsizdir.

Qoraqalpog'istonda davlat tili - qoraqalpoq va o'zbek tillardir. Ayni vaqtda Qoraqalpog'iston Respublikasi hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va ellatlarning tillari, urf-odatlar va an'analari hurmat qilinishi

¹ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 70-modda. T., "O'zbekiston", 2012 yil.

² O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 81-modda. T., "O'zbekiston", 2012 yil.

ta'minlanadi ularning rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratib beriladi va suveren Respublikaning davlat ramzlari hurmat qilinadi, va davlatning xalq irodasini ifoda etishi, xalq manfaatlariga xizmat qilishi, davlat organlari hamda mansabdor shaxslarning jamiyat va fuqarolar oldida javobgar ekanligi qayd etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 74-moddasi g'oyat muhim siyosiy mazmun kasb etadi. Unda O'zbekiston tarkibidagi Qoraqalpog'istonning chinakam suverenligini tasdiqlovchi qoida mustahkamlangan: "Qoraqalpog'iston Respublikasi O'zbekiston Respublikasi tarkibidan Qoraqalpog'iston Respublikasi xalqining umumiy referendumida ajralib chiqish huquqiga ega"¹. Bu konstitutsiyaviy norma Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitutsiyasining 9-moddasida: "Jamiyat va davlat hayotining eng muhim masalalari xalq muhokamasiga taqdim etiladi, umumiy ovozga, ya'ni referendumga qo'yiladi. Referendum o'tkazish tartibi qonun bilan belgilanadi" deb mustahkamlangan.

O'zbekiston Respublikasi referendumida davlat hayoti va ijtimoiy hayotning eng muhim masalalari bo'yicha, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasining qonunlarini va o'zga qarorlarini qabul qilish, ularni o'zgartirish, jamoatchilik fikrini aniqlash maqsadida umumxalq ovoz berishi bo'lib, xalq hokimiyatini amalga oshirish vositasidir" deb belgilangan. Referendum o'tkazish tashabbusi huquqiga ega bo'lgan sub'ektlarning tarkibida Qoraqalpog'iston Respublikasi nomidan uning davlat hokimiyatining Oliy organi – Jo'qorg'i Kengesi chiqishi mumkin. Qoraqalpog'iston Respublikasining Jo'qorg'i Kengesi O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi bilan kelishilgan holatda referendum o'tkazishni tayinlash to'g'risida qaror qabul qilishi mumkin.

¹ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 74-moddasi. T., "O'zbekiston", 2012 yil.

Qoraqalpogʻiston Respublikasining hududiy oʻzgartirish soliqlar, budget, avf etish (amnistiya), jamoat tartibini saqlash, aholining sihat-salomatligini va xavfsizligini taʼminlash, favqulotda va shoshilinch chora-tadbirlar koʻrish, Oʻzbekiston Respublikasi tuzgan xalqaro shartnomalardan kelib chiqadigan majburiyatlarning bajarilishi masalalari, mansabdor shaxslarni tayinlash va ozod etish bilan bogʻliq masalalar referendumga qoʻyilishi mumkin emas. Referendum oʻtkazish tartibi hududiy vakillik organlarini saylovlarni oʻtkazish talablariga muvofiq ravishda fuqarolarning umumiy, teng va demokratik huquqiy prinsiplari asosida yashirin ovoz berish yoʻli orqali amalga oshiriladi. Fuqarolarning oʻz xohish-irodalarini izhor etishlarini nazorat etishga yoʻl qoʻyilmaydi.

Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 75-moddasida va Qoraqalpogʻiston Respublikasi Konstitutsiyasining 1-moddasining 2-bandida mustahkamlangan boʻlib, unda jumladan shunday deyiladi: Oʻzbekiston Respublikasi bilan Qoraqalpogʻiston Respublikasining oʻzaro munosabatlari Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi doirasida va ular oʻrtasida tuzilgan shartnomalar va bitimlar orqali" tartibga solinadi¹. Shuningdek, Qoraqalpogʻiston Respublikasining davlat huquqi Oʻzbekiston Respublikasi tomonidan kafolatlanishi har ikkala suveren davlatlarni Konstitutsiyalarida belgilangan.

Hozirgi kunda dolzarb boʻlib turgan masalalardan biri – Oʻzbekiston bilan Qoraqalpogʻiston Respublikalari oʻrtasidagi turli sohalarda ayniqsa iqtisodiy masalalarda oʻzaro munosabatlarni keng tarmoqli rivojlantirishga erishishdir.

Bozor iqtisodiyotiga oʻtish jarayoni xalq xoʻjaligining toʻlaqonli ishlashini taʼminlash uchun muayyan iqtisodiy poydevor qurishni va uni

¹ Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 75-moddasi. T., "Oʻzbekiston", 2012 yil.

mustahkamlashni talab qiladi. Bu esa xususiylashtirishni jadallashtirish va mulkchilikning barcha shakllarini amalga tadbqiq qilish imkoniyatlarini yaratish majburiyatini qo'yadi. Buning uchun birinchi navbatda huquqiy asoslarni mustahkamlash zarur bo'ladi. Talab darajasida bo'lmagan normativ hujjatlarni bozor munosabatlari ehtiyojlaridan kelib chiqib, unga moslashtirish yoki yangilash, davlat qurilishiga oid qonunlar yaratish joiz, ya'ni, Qoraqalpog'iston o'z huquqiy bazasini mustahkamlashi va rivojlantirishi muhim masaladir. Bunda milliy va xorijiy tajriba muhim ahamiyat kasb etadi. Yosh suveren respublika oldida turgan eng murakkab muammolardan biri, yuqorida aytganimizdek, mulkchilik munosabatlarini har taraflama takomillashtirishdir. Ayniqsa, mulkdorning mulkka egalik qilishi, undan foydalanishi, daromad olishi, mulkni tassarruf qilishi bilan bog'liq barcha huquqlarini qonuniy mustahkamlash asosiy tadbirlardandir.

Konstitutsiyaning mavjudligi davlat suverenitetining eng muhim belgilaridan biridir. Ayrim mualliflar Konstitutsiyani mutloq asoslagan holda davlat ramzlari qatoriga kiritadilar. Qoraqalpog'iston Respublikasida davlat hokimiyati manbai xalq bo'lganligi sababli Konstitutsiya qoraqalpoq xalqi davlatchiligining qonuniy ekanligini tasdiqlaydi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitutsiyasi davlat tuzilishi, davlat hokimiyati tizimi va davlat, jamiyat va shaxsning o'zaro munosabatlari asoslarining bosh tamoyillarini aniqlab beradi.

O'zbek xalqi bilan qoraqalpoq xalqi azaldan do'st, birodar, qon-qarindosh va muruvvatlidir. Ularning ma'naviyat birligi va xo'jalik yuritish usul va shakllarining yakdilligi, har ikki xalq o'rtasida qardoshlik rishtalarini yanada mustahkamladi va bu holat o'zining konstitutsiyaviy ifodasini topdi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 21-moddasining 3-bandida Qoraqalpog'iston Respublikasining fuqarosi ayni vaqtda O'zbekiston Respublikasining fuqarosi hisoblanadi, 68-moddasida esa Qoraqalpog'iston

Respublikasi O'zbekiston Respublikasining ma'muriy, hududiy birliklari qatoriga kiritilishi, bu ikki xalq deb hisoblangan bir millat ekanligini mustahkamlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida aniq belgilab qo'yilgan: "Qoraqalpog'iston suveren Respublika." - O'zbekiston Respublikasi o'z tarkibida Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'lgan unitar davlatdir. Shu bilan birga yana ta'kidlash lozimki, O'zbekiston Respublikasining tuzilishida federalizmga xos belgilar mavjud bo'lib, ular Qoraqalpog'iston Respublikasi suverenitetga ega ekanligida ko'rinadi.

Ularga quyidagilar kiradi:

a) O'zbekiston Respublikasi tarkibida Qoraqalpog'iston Respublikasining o'z hududi va aholisiga ega bo'lgan alohida davlat huquqiy tizim sifatida konstitutsiyaviy mustahkamlanishi;

b) O'zbekiston qonunchilik tizimida Qoraqalpog'iston Respublikasining qonunchilik aktlarining mustaqil tizimi, shu jumladan alohida normativ akt bo'lgan Qoraqalpog'iston Konstitutsiyasining mavjudligi;

v) Qoraqalpog'iston mustaqil faoliyat ko'rsatadigan davlatning huquqiy institutlari tuzilmasi; Jo'qorg'i Kenges, ministrlar soveti, Oliy sud, Konstitutsiyaviy nazorat qo'mitasi, Xo'jalik sudi va boshqalarning ish olib borishi;

g) Qoraqalpog'iston Respublikasi chegaralari va xududi daxlsizligi;

d) Qoraqalpog'iston Respublikasi o'zining ma'muriy-hududiy qurilishi masalalarini mustaqil hal qilish huquqi, mahalliy soliqlar va yig'imlar miqdori belgilashi, respublika budjetini mustaqil qabul qilish huquqi;

e) Qoraqalpog'istonning O'zbekiston Respublikasi tarkibidan referendum asosida chiqib ketish huquqi;

j) O'zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog'iston Respublikasining o'zaro munosabatlarini shartnoma va bitimlar yordamida tartibga solib turish;

z) Qoraqalpog'iston Respublikasining o'z davlat ramzlari; bayroq, madhiya, gerbiga ega ekanligi;

Oxirgi ikki suverenlik belgisi odatda mustaqil davlatlarga xosdir.

Qoraqalpog'iston Respublikasi suvereniteti O'zbekiston Respublikasi tomonidan ta'minlanadi degan holat O'zbekiston va Qoraqalpog'iston Respublikalari Konstitutsiyalarining moddalariga binoan izohlanishi lozim. Fuqarolarning huquq va erkinliklariga O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga rioya etilishining kafili O'zbekiston Respublikasi Prezidenti hisoblanadi.

Qoraqalpog'iston suverenitetini O'zbekiston Respublikasi tomonidan himoya qilish omillari quyidagilarni tashkil etadi:

- 1) Qoraqalpog'iston Respublikasining mustaqil huquq va vakolatlarini O'zbekiston Konstitutsiyasida qayd etilishi;
- 2) O'zbekiston Davlat hokimiyatining oliy organlari: Oliy Majlisda, Vazirlar Mahkamasida, Konstitutsiyaviy, Oliy va Oliy xo'jalik sudlarida Qoraqalpog'iston vakilligining mavjudligi;
- 3) hududiy ustivorlik tamoyili, unga binoan Qoraqalpog'iston hududiy tuzilishining roziligisiz o'zgartirilishi mumkin emasligi;
- 4) Qoraqalpog'istonning O'zbekiston tarkibidan chiqish masalasi bo'yicha referendum o'tkazish huquqi;
- 5) qoraqalpoq tiliga davlat tili maqomini berilganligi;
- 6) Qoraqalpog'iston Respublikasining boshqa davlatlar bilan tashqi, iqtisodiy, madaniy, ilmiy va boshqa aloqalar o'rnatish huquqi.

Shunday qilib, yuqorida keltirilgan konstitutsiyaviy normalar Qoraqalpog'iston Respublikasi O'zbekiston Respublikasining tarkibiga o'z

xohishi bilan kiruvchi va muhofaza qilinuvchi suveren davlat ekanligi mustahkamlangan.

2.2. Qoraqalpog`iston Respublikasi Konstitutsiyasi va davlat tuzilishi.

Konstitutsiyaning mavjudligi davlat suverenitetining eng muhim belgilaridan biridir. Ayrim mualliflar Konstitutsiyani mutloq asoslagan holda davlat ramzlari qatoriga kiritadilar. Qoraqalpog`iston Respublikasida davlat hokimiyati manbai xalq bo`lganligi sababli Konstitutsiya qoraqalpoq xalqi davlatchiligining qonuniy ekanligini tasdiqlaydi.

Qoraqalpog`iston Respublikasi Konstitutsiyasi davlat tuzilishi, davlat hokimiyati tizimi va davlat, jamiyat va shaxsning o`zaro munosabatlari asoslarining bosh tamoyillarini aniqlab beradi. Qoraqalpog`iston Respublikasi Konstitutsiyasi O`zbekiston tarkibiga kiruvchi respublikaning Asosiy Qonuni bo`lganligi sababli O`zbekiston Konstitutsiyasining tamoyillariga to`liq mos keladi. Qoraqalpog`iston Respublikasi Konstitutsiyasining ahamiyati quyidagilarda o`z aksini topadi:

- davlat shaklining, yuridik xususiyati va O`zbekiston Respublikasi tarkibidagi o`rni hamda o`zaro munosabatlarning huquqiy asosi;
- suverenitetining yuridik kafolati;
- mustaqil, to`la huquqli davlatligi;
- davlat va ma`muriy hududiy tuzilish xususiyatlarini hisobga olinishi;

Qoraqalpog`iston Respublikasi O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ustuvorligini tan oladi. Bu birinchi navbatda Qoraqalpog`iston Konstitutsiyasi va qonunlarini tamoyil va moddolari mos kelishi kerakligini anglatadi. Qoraqalpog`iston Respublikasi Konstitutsiyasi, O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga mos kelishi O`zbekiston va Qoraqalpog`iston o`rtasidagi davlat-huquqiy munosabatlari bilan chambarchas bog`liq. O`zbekiston Respublikasi qonunlari Qoraqalpog`iston

Respublikasi hududida ham amal qilishi majburiydir. Huquqiy davlatning asosiy belgilaridan biri-davlat yagona huquqiy siyosat va qonun qo'llash bilan har ikkala respublikada ham yagona qonunlarga tayanishni talab qiladi. Huquqning barcha tarmoqlari o'zagida O'zbekiston qonunlari mujassamlashtirilgan bo'lib, Qoraqalpog'iston hududida ham amal qilishi mustahkamlangan.

Qoraqalpog'iston Respublikasida davlat hokimiyati xalq manfaatlarini ko'zlab, Konstitutsiyasi hamda uning asosida qabul qilingan qonunlariga binoan vakolat berilgan idoralari tomonidagina amalga oshiriladi. Konstitutsiyada nazarda tutilmagan tartibda davlat hokimiyati vakolatlarini o'zlashtirish, hokimiyat idoralari faoliyatini to'xtatib qo'yish yoki tugatish, hokimiyatning yangi tarkiblarini tuzish Konstitutsiyaga xilof hisoblanadi va qonunga binoan javobgarlikka tortishga asos bo'ladi.

Qoraqalpog'iston xalqini, millatidan qat'iy nazar, Qoraqalpog'iston Respublikasining fuqarolari tashkil etadi. Qoraqalpog'iston xalqi nomidan faqat u saylagan Oliy hokimiyat organi Jo'qorg'i Kengesi ish olib boradi. Uning davlat hokimiyati tizimi qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo'linish tamoyillariga asoslanadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlarining ustunligi so'zsiz tan olinadi. Davlat, uning organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalari, fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish ko'radilar.

Qoraqalpog'iston Respublikasining xalqaro, ilmiy, madaniy va tashqi iqtisodiy aloqalari O'zbekiston Respublikasining va Qoraqalpog'iston Respublikasining qonunlariga muvofiq amalga oshiriladi.

O'zbekiston va Qoraqalpog'iston Respublikalarining barcha fuqarolari bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat'iy nazar qonun

oldida tengdirlar.

Fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlab qo'yilgan huquq va erkinliklari daxlsizdir. Ulardan sud qarorisiz mahrum etishga va ularni cheklab qo'yishga hech kim haqli emas.

Qoraqalpog'iston Respublikasi qonunlarda belgilagan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan kasaba uyushmalar, ommaviy harakat, siyosiy partiyalar, olimlarning jamiyatlari, xotin-qizlar, faxriylar, yoshlar tashkilotlari, ijodiy uyushmalar va fuqarolarning jamoat birlashmalari sifatida e'tirof etiladi.

Davlat jamoat birlashmalarining huquqlari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishini ta'minlaydi. Ularga ijtimoiy hayotda ishtirok etish uchun teng huquqiy imkoniyatlar yaratib beradi. Qoraqalpog'iston Respublikasi tumanlardan, shaharlardan, shaharchalardan, ovullardan iborat.

Qoraqalpog'iston xalqini, millatidan qat'iy nazar, Qoraqalpog'iston Respublikasining fuqarolari tashkil etadi. Qoraqalpog'iston xalqi nomidan faqat u saylagan Oliy hokimiyat organi Jo'qorg'i Kengesi ish olib boradi. Uning davlat hokimiyati tizimi qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo'linish tamoyillariga asoslanadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlarining ustunligi so'zsiz tan olinadi. Davlat, uning organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalari, fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish ko'radilar.

Qoraqalpog'iston Respublikasining xalqaro, ilmiy, madaniy va tashqi iqtisodiy aloqalari O'zbekiston Respublikasining va Qoraqalpog'iston Respublikasining qonunlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Tuman va shaharlarni tashkil qilish va ularni tugatish shuningdek, ularning chegaralarini o'zgartirish Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi tomonidan amalga oshiriladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi oliy davlat vakillik organi bo'lib, qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiradi. Qoraqalpog'iston Respublikasining Jo'qorg'i Kengesi hududiy saylov okruglari bo'yicha ko'p partiyaviylik asosida besh yil muddatda saylanadigan 75 nafar deputatdan iboratdir. Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesining mutloq vakolatlari uning Konstitutsiyasi 70-moddasida ifoda etilgan.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitutsiyaviy nazoratni Qoraqalpog'iston Respublikasining Konstitutsiyaviy nazorat qo'mitasi amalga oshiradi.

Konstitutsiyaviy nazorat qo'mitasi Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi tomonidan siyosat va huquq sohasidagi mutaxassislar orasidan Konstitutsiyaviy nazorat qo'mitasining raisi, uning o'rinbosari va qo'mitaning a'zolari tarkibida saylanadi. Konstitutsiyaviy nazorat qo'mitasiga saylangan sudyalarning vakolat muddati 5 yildir.

Konstitutsiyaviy nazorat qo'mitasiga saylangan shaxslar o'z vazifalarini bajarishda daxilsizdirlar va faqat Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitutsiyasiga bo'ysunadilar. Uni tashkil etish va ish tartibini belgilash Qoraqalpog'iston Respublikasining Konstitutsiyaviy nazorat qo'mitasi to'g'risidagi qonuni bilan belgilangan.

Qoraqalpog'iston Respublikasida mahalliy davlat hokimiyat organlari tumanlar va shaharlarda hokimlar boshchilik qiladigan xalq deputatlari Kengashlari hokimiyatning vakillik organlari bo'lib, ular davlat va fuqarolarning manfaatlarini ko'zlab o'z vakolatlariga taalluqli masalalarni hal etadilar.

Qoraqalpog'iston Respublikasining fuqarolari vakillik organlariga saylash va saylanish huquqiga egadirlar. Har bir saylovchi bir ovozga ega. Mahalliy hokimiyatning vakillik organlari yashirin ovoz berish yo'li bilan

umumiy teng va to'g'ridan-to'g'ri saylov huquqi asosida o'tkaziladi, 18 yoshga to'lgan har bir fuqaro saylash huquqiga ega bo'ladi.

Sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan fuqarolar, shuningdek, ozodlikdan mahrum etish joylarida saqlanayotganlar saylovlarda qatnashmaydilar.

Mahalliy hokimiyat organlari ixtiyoriga quyidagilar kiradi:

qonuniylik, huquqiy-tartibotni va fuqarolarning xavfsizligini ta'minlash;

hududlarni iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlantirish;

mahalliy budjetni shakllantirish va uni ijro etish, mahalliy soliqlarni, yig'imlarni belgilash, budjetdan tashqari jamg'armalarni hosil qilish;

fuqarolik kommunal xo'jalikka rahbarlik qilish, atrof muhitni muhofaza qilish;

fuqarolik holati aktlarini qayd etishni ta'minlash;

normativ hujjatlarni qabul qilish, Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitutsiyasiga va qonunlariga zid kelmaydigan boshqa vakolatlarni amalga oshirish.

Xalq deputatlari Kengashlari va hokimlarining vakolat muddati – 5 yil, vakillik va ijroiya hokimiyatini tegishlilikiga qarab, tuman va shahar hokimlari boshqaradi.

Qoraqalpog'iston Respublikasida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlarining ustunligi so'zsiz tan olinadi. Davlat, uning organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalari, fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish ko'radilar.

Qoraqalpog'iston Respublikasining xalqaro, ilmiy, madaniy va tashqi iqtisodiy aloqalari O'zbekiston Respublikasining va Qoraqalpog'iston Respublikasining qonunlariga muvofiq amalga oshiriladi.

O'zbekiston va Qoraqalpog'iston Respublikalarining barcha fuqarolari

bir xil huquq va erkinliklarga ega bo`lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e`tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat`iy nazar qonun oldida tengdirlar.

Qoraqalpog`iston Respublikasining sud tizimi besh yil muddatga saylanadigan Qoraqalpog`iston Respublikasining Oliy Sudi, Xo`jalik sudi, shu muddatga tayinlanadigan tuman, shahar sudlaridan iborat. Ular O`zbekiston Respublikasining "Sudlar to`g`risida"gi qonuniga muvofiq o`z faoliyatini olib boradilar. Ushbu qonunda jumladan, "Qoraqalpog`iston Respublikasi Oliy sudi, fuqarolik va jinoyat ishlari bo`yicha, fuqarolik ishlari bo`yicha tumanlararo sudlari, Qoraqalpog`iston Respublikasi xo`jalik sudi faoliyat ko`rsatadi" deb belgilangan. Ular faoliyatining tashkil etilishi O`zbekiston Respublikasi Prezidentining vakolatlari jumlasiga kirib unga ko`ra, O`zbekiston Respublikasi Prezidenti roziligi bilan Qoraqalpog`iston Respublikasi Jo`qorg`i Kengesida, Qoraqalpog`iston Respublikasi Oliy sudi raisi va a`zolari, shuningdek, tuman, shahar sudlarining sudyalari, lavozimlariga nomzodlarni tavsiya qiladi¹.

Qoraqalpog`iston Respublikasi Oliy sudi jinoiy, fuqaroviy va ma`muriy sud ishlarini yuritish borasida, sud hokimiyatining oliy organi hisoblanadi. Tuman, shahar sudlari sudlov faoliyati ustidan nazorat olib boradi.

¹ U.Tadjixanov, H.Odilqoriev, A.Saidov.O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy huquqi., "Sharq" ,Toshkent 2001y. IIV. Akademiyasi. 245-bet.

2.3. O`zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy va davlat tuzilishi mavzusi buyicha dars ishlanmasi.

(«Davra suhbat» dars turi orqali)

Biz quyidagi bir soatlik dars ishlanmasi asosida o`quvchilarda O`zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy va davlat tuzilishi mavzusi buyicha dars ishlanmasiga doir ma'lumotlarni tahlil qilish, masalani teran anglash xislatlarini shakllantirishning qisqacha ko`rinishini taqdim qilmoqdamiz. Albatta bunday uslubda dars mashg`ulotlarini olib borish o`qituvchidan katta mahorat va bilimni talab etadi. Lekin pirovard natijada o`quvchilar ongida ushbu masalaga doir muayyan tushunchalarni shakllantirish imkoniyati paydo bo`lishi mumkin.

Darsning maqsadi va vazifalari:

Ta'limiy maqsad: O`zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy va davlat tuzilishi mavzusi bo'yicha dars ishlanmasi to`g`risida ma'lumot berish.

1. Tarbiyaviy maqsad: o`quvchilarni Respublika Konstitutsiyasi va qonunlariga hurmat ruhida tarbiyalash.
2. Rivojlantiruvchi maqsad: o`quvchilarni mustaqil fikrlashga o`rgatish va ularning huquqiy ongini oshirib, huquqiy madanuyatini shakllantirish.

Dars turi: Noan'anaviy usulda bahs-munozara metodi.

Dars jihozi: Darslik, ko`rgazma slaydlar, tarqatma materiallar, mavjud texnik vositalar (kompyuter, proyektor, elektron doska).

Darsning borishi:

A) Salomlashish;


B) Davomat;

S) Siyosiy va madaniy xabarlar bilan tanishtirish;

Sinf o`quvchilarini 2 guruhga bo`lamiz.

Davra suhbatı metodu o`quvchilar o`rtasida va kichik guruhlarda stol atrofida o`z fikr mulohazalarini bildirish orqali olib boriladigan o`qitish metodidir. Davra suhbatı metodining og`zaki va yozma shakllari mavjud. Og`zaki davra suhbatida o`qituvchi mavzusini boshlab beradi va o`quvchılardan ushbu mavzu bo`yicha o`z fikr mulohazalarini bildirishlarini so`raydi.

Dars o`tishda o`quvchılarni noan'anaviy metod bilan tanishtirib, stol stullarni quyidagicha joylashtirib o`quvchilar o`tqaziladi:



Mavzuni o`qituvchi boshlab beradi:

Davlatning ma'muriy-hududiy tuzilishi – har bir davlatni hududiy tashkillashtirishning ijtimoiy-iqtisodiy tarkibiy qismi bo`lib, u davlat qurilishining umumiy masalalarini to`laqonli amalga oshirish uchun tashkiliy jihatdan ajratilgan davlat hududining qismlaridir.

Davlatni hududiy jihatdan tashkillashtirish o`z *maqsadi* va *vazifalariga* ko`ra nafaqat *ma'muriy-hududiy*, balki:

iqtisodiy-hududiy (masalan, erkin savdo qiluvchi zonalar);

harbiy-hududiy (masalan, O`zbekistonda tashkil etilgan Toshkent, Markaziy, Shimoliy, Janubiy, G`arbiy, Sharqiy harbiy okruglar);

siyosiy-hududiy (masalan, barqarorlikni saqlash va etnik masalalarni hal qilish uchun ajratiladigan mintaqalar);

ekologik-hududiy (masalan, Orol va Orol bo`yi ekologik inqiroz holatidagi alohida muhofozaga muhtoj bo`lgan yer kengligining quruqlik qismi va suv akvatoriyasi) shakllarda namoyon bo`lishi mumkin.

O`qituvchi ushbu asosiy tushunchalarga to`xtalib o`tgandan keyin oldindan tarqatilgan materiallar asosida o`quvchilarga navbat beradi:

**1-o`quvchi.** O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XVII bobi "Qoraqalpog`iston Respublikasi" deb nomlangan. Mazkur bob 6 moddadan iborat bo`lib, "Suveren Qoraqalpog`iston Respublikasi O`zbekiston Respublikasi tarkibiga kiradi va Qoraqalpog`iston Respublikasining suvereniteti O`zbekiston Respublikasi tomonidan muhofaza etiladi"¹ deyiladi. Asosiy qonunning 70-moddasi 1992 yil 9 yanvarda Qoraqalpog`iston Respublikasi tashkil topganligini va 1993 yil 9 aprelda qabul qilingan Asosiy Qonuni bilan uning O`zbekiston Respublikasi tarkibida suverenligini tasdiqlaydi. Suveren Qoraqalpog`iston Respublikasi

¹ O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 70-moddasi. T., "O`zbekiston", 2012 yil.

Konstitutsiyasi qabul qilingan kun xalq bayrami deb e'lon qilindi. Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitutsiyasining I bobi "Davlat suvereniteti" deb nomlanib, uning 1-moddasida Qoraqalpog'iston - O'zbekiston Respublikasi tarkibiga kiruvchi suveren demokratik respublikadir, deb belgilangan.

2-o'quvchi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 71-moddasida, Qoraqalpog'iston Respublikasining o'z Konstitutsiyasiga ega bo'lishligi, uning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga zid bo'lmasligi ko'rsatilgan. Shuni ta'kidlash joizki, Sobiq Ittifoq davrida Avtonom Respublikalarning Konstitutsiyalari ular qaysi Respublikalar tarkibiga kiritilgan bo'lsa o'sha davlat hokimiyatining oliy organlari tomonidan tasdiqlanishi shart edi. O'zbekiston o'z mustaqilligini qo'lga kiritib bu adolatsizlikka chek qo'ydi. Qoraqalpog'iston suveren Respublikasi bilan mustaqil O'zbekiston Respublikasining bir-butun yaxlitligi mustahkamlangan.

3-o'quvchi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 69-moddasiga binoan Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahrining chegaralarini o'zgartirish, shuningdek viloyatlar, shaharlar, tumanlar tashkil qilish va ularni tugatish O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining roziligi bilan amalga oshiriladi.

1999 yil 20 avgustda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi "Davlat chegarasi to'g'risida"gi qonunning 3-moddasiga muvofiq, davlat chegarasi uning hududi doirasidagi yer kengliklarini (quruqlikda, suvda, yer ostida, havo bo'shlig'ida) belgilovchi chiziqdan va bu chiziq bo'ylab o'tuvchi vertikal (ko'ndalang) sathdan iboratdir.

Mamlakatimizning yuqori toifadagi ma'muriy-hududiy qismlari – viloyatlar va Qoraqalpog'iston Respublikasi chegaralarining aksariyat qismi davlat chegaralaridan iboratdir. Shuning uchun ham "Davlat chegarasi

to'g'risida"gi qonun me'yorlari ma'muriy-hududiy qismlarning chegaralariga oid masalalarni ham qamrab oladi. Ushbu Qonunning 5-moddasiga binoan Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyat, qishloq tumanlari chegaralari davlat chegaralaridan o'tadigan bo'lsa, ularni belgilash va o'zgartirish xalqaro shartnomalarga asosan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan amalga oshiriladi.

4-o'quvchi Davlat chegarasi delimitatsiya (lotincha tilida "delimitatio" –chegaralash, ayirboshlash) va demarkatsiya (fransuz tilida "demarcation" –chegara belgilarini qo'yish) qilinadi, ya'ni ikki davlat o'rtasida chegara chiziqlari o'tkaziladi va tegishli belgilar qo'yiladi. Davlat chegarasini belgilash, o'zgartirish, himoya qilish va qo'riqlash umumsiyosiy masalalar toifasiga kirib, O'zbekiston Respublikasi markaziy davlat organlari tomonidan belgilangan normalarda va tartiblarda amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi ma'muriy-hududiy qismlarning ichki chegaralarini o'zgartirish milliy qonunchilikka asosan tartibga solinadi. Masalan, "O'zbekiston Respublikasida ma'muriy-hududiy tuzilish, topologik ob'ektlarga nom berish va ularning nomlarini o'zgartirish masalalarini hal etish tarkibi to'g'risida"gi qonunning 5-moddasiga ko'ra, yuqori huquqiy toifaga kiruvchi viloyatlar chegaralarini belgilash, o'zgartirish, tashkil qilish va tugatish ushbu ma'muriy-hududiy qismlarning mahalliy boshqaruv organlari iltimosnomasiga ko'ra va Vazirlar Mahkamasining taklifiga muvofiq Oliy Majlis tomonidan amalga oshiriladi.

5-o'quvchi Viloyatlarni tuzish, tashkil qilish, chegaralarini o'zgartirish yoki tugatish masalalari tegishli viloyat vakillik idoralarning tavsiyasi asosida Vazirlar Mahkamasining taklifiga ko'ra Oliy Majlis tomonidan amalga oshiriladi. Zarur hollarda mazkur masala bo'yicha tegishli viloyatlarda referendum o'tkazilishi mumkin.

Viloyat eng yirik ma'muriy-hududiy bo'linma sifatida o'rta va quyi qismlarga nisbatan bir muncha barqaror hisoblanadi. Viloyat ularning tashkil etilishi, chegaralarning o'zgartirilishi va tugatilishi uchun ham siyosiy, ham iqtisodiy, ham ijtimoiy, ham ma'naviy, ham milliy-etnik, ham huquqiy asoslar mavjud bo'lishi talab qilinadi.

Qishloq va shahar tumanlarini tuzish ham muhim huquqiy, iqtisodiy va siyosiy masalalar darajasidagi davlat faoliyatiga kiradi. Shuning uchun ularni tuzish yoki tugatish yiriklashtirilayotgan yoki tugatilayotgan tuman Kengashlari tavsiyasi va Vazirlar Mahkamasining taklifiga binoan Oliy Majlis tomonidan amalga oshiriladi.

Shaharlarni Respublika miqyosidagi shaharlar toifasiga kiritish tegishli shahar va viloyat halq deputatlari Kengashi tavsiyasiga binoan Vazirlar Maxkamasini kiritadigan taklifiga ko'ra Oliy Majlis tomonidan amalga oshiriladi. Xuddi shunday jarayon shaharlarni viloyat toifasidagi shaharlarga kirgazishda ham qo'llaniladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasida shaharlarni quyi toifdan yuqori toifaga o'tkazish Juqorg'i Kengesning tavsiyasiga asosan Vazirlar Mahkamasi kiritadigan taklifiga ko'ra Oliy Majlis tomonidan amalga oshirish qonunchilikda ko'zda tutilgan.

6-o'quvchi. O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy tuzilish tizimi hokimiyat va boshqaruv organlarining huquqiy holatiga, ularning huquq va majburiyatlarini ifoda etilishiga ko'ra tashkil etilgandir. Unda har bir ma'muriy-hududiy birlik xo'jalik yurgazishning o'ziga xos tomonlari, aholisining milliy va etnik tarkibi, soni, madaniyati, azaliy urf-odatlar va an'analari, ishlab chiqarish salohiyati va ijtimoiy qudratiga qarab ham ajratilgandir.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 68-moddasiga binoan O'zbekiston Respublikasi viloyatlar, tumanlar, shaharchalar, qishloqlar,

ovullar, shuningdek Qoraqalpog'iston Respublikasidan iborat. Respublika Makroiqtisodiyot va statistika vazirligi tomonidan chop etilgan "O'zbekiston Respublikasi aholisi – 2000" nomli statistik to'plamga muvofiq 2000 yil 1 yanvarga kelib respublikamiz 1826 ta ma'muriy-hududiy qismlardan iborat. Ulardan 12 tasi viloyat va Qoraqalpog'iston Respublikasi, 182 tasi qishloq va shahar tumanlari, 55 tasi respublika va viloyat bo'ysunuvidagi shaharlar, 120 tasi shaharchalar hamda 1456 tasi qishloq va ovullar fuqarolar yig'inidan iborat bo'lgan.

o'qituvchi: Umuman, siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishi kabi omillarga ko'ra uning yer kengliklari ma'lum bir qismlarga ajratiladi. Bunday ma'muriy-hududiy qismlarga ajratish aksariyat hollarda davlatning markazdan turib ijtimoiy munosabatlarni samarali tartibga solish imkoni bo'lmagan tarzda amalga oshiriladi. Ajratilgan qismlar mexanik tarzda emas, balki biron bir maqsadni ko'zlab va ma'lum bir prinsiplarga asoslangan holda bo'linadi.

O'quvchilarning fikr mulohazalarini tinglangandan keyin mavzuni umumlashtirib tushuntirib beriladi.

O'qituvchi mavzuni tegishlicha tushuntirib bergandan keyin mavzu bo'yicha mustahkamlash uchun savollar beradi.

O'quvchilarga uyga vazifa berib darsni yakunlaydi.

Davra suhbatini metodining afzalliklari.

- o'tilgan mavzu yaxshi esda qolishga yordam beradi;
- barcha o'quvchilar o'zaro muloqatda bo'ladilar;
- har bir o'quvchi o'zining ishtirok etish mas'uliyatini xis qiladi.
- o'z fikrlarini erkin ifoda etish imkoniyati mavjud.

Davra suhbatini metodining kamchiliklari.

- ko'p vaqt talab qiladi;

- o`qituvchining o`zi ham rivojlangan fikrlash qobiliyatiga ega bo`lishi talab etiladi;
- o`quvchilarning bilim darajasiga mos va qiziqarli bo`lgan mavzu tanlash talab etiladi.

Ushbu dars ishlanmasi faqat bir soatlik mashg`ulot mavzusini o`z ichiga oladi. Ammo bu vaqtda o`quvchilar tafakkurida Respublika madaniy-ma'rifiy hayoti to`g`risida tushunchalarni shakllantirib, ularning dunyoqarashida o`zlari yashayotgan jamiyatning muammo va yutuqlariga befarq bo`lmaslik xislatlarini takomillashtirishga erishish muhim vazifa sanaladi. Shu sababli o`qituvchilarning oldidagi eng asosiy va muqaddas vazifa ham o`quvchilar ongida ona vatanga bo`lgan mexr-muhabbatni shakllantirishga qaratilgan yangi pedagogik texnologiyalarni dars jarayonida samarali qo`llab, jamiyat uchun foydasi ko`proq tegadigan yetuk insonlarni tarbiyalab yetishtirishdan iborat.

Xulosa

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 1-moddasiga muvofiq u suveren demokratik respublika bo'lib, mustaqil davlat hisoblanadi. "Mustaqillik" esa Prezidentimiz I.A.Karimov iborasi bilan aytganda, avvalambor "huquq" demakdir. Chunki davlatimizning hozirgi ma'muriy-hududiy chegarasida birinchi bor O'zbekiston xalqi o'z moddiy va ma'naviy boyliklaridan o'z hoxishicha, ya'ni o'zining Konstitutsiyasi va uning asosida qabul qilingan qonun hujjatlariga muvofiq ravishda jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish imkoniyati – "huquqi" yuzaga keldi. Endilikda, biz va bizning xalqimiz xom ashyo yetkazib beradigan chekka o'lkada emas, balki mustaqil ravishda o'z huquqimizni amalda tatbiq qila oladigan milliy suveren davlatda yashayotganimizni alohida ta'kidlash joizdir.

O'zbekiston Respublikasi "...O'zbekiston xalqining munosib turmushini, huquqlarini va erkinliklarini kafolatlash, milliy qadriyatlarimiz va madaniyatimiz qayta tiklanishi, insonning ma'naviy-ahloqiy barkamolligini ta'minlash..."¹ ga qaratilgandir.

Mustaqil milliy davlatchiligimiz, avvalambor daxlsiz yer kengliklariga ega bo'lishimiz, so'ngra, davlat tili sifatida – o'zbek tilini qabul qilishimiz, Prezidentlik institutini ta'sis etishimiz, ma'muriy-hududiy qismlarni o'z tariximizga suyangan holda – viloyat va tuman deb atashimiz hamda ularda hokimlik lavozimini o'rnatishimiz, xalqaro hamjamiyat tomonidan suveren davlat sifatida tan olinishimiz va albatta, o'z Konstitutsiyamizga ega bo'lishimizdadir.

O'zbekiston milliy davlatining shakllanishi oxir-oqibatda ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy, istiqlol va taraqqiyot yo'lidagi "o'zbek modeli"ni ishlab

¹ Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. T.1. – T.: O'zbekiston, 1996 – 123-bet.

chiqishga imkon berdi. Ushbu model mustaqil O'zbekistonimizning uzoq davrga mo'ljallangan ichki va tashqi rivojlanish strategiyasini yaratishga asos bo'ldi. Uning mazmuni va mohiyati Prezidentimiz I.A.Karimov asarlari, risolalari, maqolalari va nutqlarida o'z aksini topgan. Bu yo'l O'zbekistonning o'ziga xosligi va manfaatlariga, uning tabiiy va ijtimoiy sharoitlariga, o'zbek xalqining azaliy an'alariga, demografik va etnografik holatiga mos tushadi. Mazkur milliy davlat tuzilishi va uning rivojlanish asoslari Prezidentimiz asarlarida chuqur yoritib berilgan va O'zbekistonning o'z ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy yo'lining besh asosiy tamoyillarida aks ettirilgandir.

Har bir mustaqil davlatning umumiy e'tirof etilgan asosiy belgilaridan biri – o'z chegarasi doirasidagi yagona ma'muriy hududiga ega bo'lishidir.

1991 yil 31 avgustda bo'lib o'tgan O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining XII chaqiriq, navbatdan tashqari 6-sessiyasida qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida"gi qonunining 4 va 17-moddalariga binoan Respublikamiz davlat chegarasi va hududi dahlsiz va bo'linmasdir. Uning halqi o'z xohish-irodasini erkin bildirmasdan turib, davlat chegarasi va hududining o'zgartirilishi mumkin emas. O'zbekiston tarkibida bo'lgan Qoraqalpog'iston Respublikasining hududiy butunligi va mustaqilligi e'tirof etiladi. Ushbu huquqiy holat Birlashgan Millatlar Tashkiloti Nizomiga va Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligining 1991 yil 21 dekabrda Olmaotada imzolangan xalqaro shartnomasiga to'la ravishda mos tushadi.

Xalqaro huquq me'yorlariga ko'ra har bir davlatning hududi – davlat chegarasi doirasidagi yer kengliklaridan iboratdir. Yer kengliklariga esa ushbu hududlarning quruqlik qismi, suv akvatoriyasi, yer osti boyliklari va atmosfera havosi kiradi. Mazkur tabiiy ob'ektlar har bir davlatda yashovchi insonlar uchun moddiy baza hisoblanadi. Shuning uchun ham har bir

davlat, jumladan, O'zbekiston Respublikasining hududi uning siyosiy-ijtimoiy hayotida muhim o'rin egallaydi va mustaqilligining real ifodasi deb qaraladi.

Shu o'rinda yana bir narsani ta'kidlab o'tishimiz zarur ya'ni, O'zbekiston Respublikasi mustaqilligi e'lon qilingach, sho'rolar davrida ommaviy tus olgan va sho'rolar tuzimini madh etuvchi joy nomlari bekor qilinib, aholi yashaydigan joylarning tarixiy nomlari tiklanmoqda yoki ularga yangi, o'z millatimizning urf-odatlariga va an'analariga xos bo'lgan nomlar berilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T., "O'zbekiston", 2012.
2. Karimov I.A. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi" nomli ma'ruzasi // Xalq so'zi. 2010 yil 13 noyabr.
3. I. A. Karimov. Bunyodkorlik yo'lidan. T. 4 1996.
4. Oliy Majlis IX-sessiyasining ikkinchi chaqirig'ida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning "O'zbekistonda demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari" deb nomlangan ma'ruzasi. // Xalq so'zi, 2002 y. 30 avgust.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Qamoqqa olishga sanksiya berish huquqini sudlarga o'tkazish to'g'risida»gi Farmoni. // Xalq so'zi. 2005 yil 9 avgust.
6. I.Karimov, Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot pirovard maqsadimiz, T.: "O'zbekiston", 2000.
7. I.Karimov. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T. 13. –T.: «Ma'naviyat», 2008.
8. I.Karimov, Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak, T.: "O'zbekiston", 10-t.
9. Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish yo'lini izchil davom ettirish – taraqqiyotimizning muhim omilidir // Xalq so'zi. 2010 yil 8 dekabr.
10. I.Karimov. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. –T.: «O'zbekiston», 2011.
11. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga sharh. –T.: «O'zbekiston», 2013.

12. «O`zbekiston Respublikasida ma'muriy-hududiy tuzilish, toponomik ob'ektlarga nom berish va ularning nomlarini o`zgartirish masalalarini hal etish tartibi to`g`risida»ga O`zbekiston Respublikasining qonuni. 1996 yil 30 avgust. O`zbekiston Respublikasining yangi qonunlari. 14-son–T.: Adolat, 1997.
13. “O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Reglamenti to`g`risida (O`zbekiston Respublikasi 29.08.2003 y. 522-II-son Qonuni)
14. O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Reglamenti to`g`risida (O`zbekiston Respublikasi 29.08.2003 y. 523-II-son Qonuni)
15. O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik Palatasi to`g`risida (O`zbekiston Respublikasi 12.12.2002 y. 434-II-son Qonuni)
16. O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to`g`risida (O`zbekiston Respublikasi 12.12.2002 y. 432-II-son) Konstitutsiyaviy Qonuni.
17. «Mahalliy hokimiyat idoralarini qayta tashkil etish to`g`risida»gi O`zbekiston Respublikasining qonuni. 1992 yil 4 yanvar. O`zbekistonning yangi qonunlari, 5-son.–T.: Adolat, 1992.
18. «O`zbekiston Respublikasining mahalliy hokimiyati to`g`risida»gi O`zbekiston Respublikasining qonuni 1993 yil 2 sentabr. O`zbekistonning yangi qonunlari, 9-son.–T.: Adolat, 1994.
19. «Fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organlari to`g`risida»gi O`zbekiston Respublikasining qonuni. 1999 yil 14 aprel. O`zbekistonning yangi qonunlari, 21-son.–T.: Adolat, 1999.
20. Boboyev H.B., Normatov K, Milliy davlatchilik haqida.T.: O`zbekiston, 1999.
21. Jalilov Sh.Davlat hokimiyati mahalliy organlari islohoti. Tajriba va muammolar. –T.: O`zbekiston, 1994.

22. Qayumov R.Q. O`zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy huquqi T.: Adolat, 1998.
23. Muhamedov H.M. O`zbekiston davlatchiligining huquqiy asoslari. –T.: Adolat, 2001.
24. Husanov O. T, Azizov X. T. Davlat va huquq asoslari. (Izohli lug`at). T.: O`qituvchi, 2005.
25. Husanov O.T.: O`zbekiston Respublikasining mahalliy davlat hokimiyati to`g`risidagi qonuniga sharhlar. T.: Adolat, 1995.
26. Husanov O.T.: O`zbekiston Respublikasida davlat organlari. T.: Sharq, 1996.
27. Davlat va huquq nazariyasi / H.B. Boboev va H.T. Odilqorievlar umumiy tahriri ostida. T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 2000.
28. O. Karimova. "Huquqni o`qitish metodikasi". T., 2003y.
29. A. Saidov, U. Tojixonov. Davlat va huquq asoslari. T., 2002y.
30. A. Saidov. U. Tojixonov. Huquqiy madaniyat nazariyasi. Darslik IIV Akademiyasi. 1998 yil.
31. M. Sharifxo`jaev, N. Shodiev. O`zbekiston konstitutsiyaviy davlat. T., «O`zbekiston». 2003.
32. Ahmedov D.Q. O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi: Davlat ijtimoiy himoyasining asosi sifatida. // Ilmiy-amaliy ma`ruza matn. 2003. - T., TDYUI, 2009.

Quyidagi Internet saytlaridan foydalanildi:

[www. gov. uz](http://www.gov.uz)

[www. press - service. uz.](http://www.press-service.uz)

[www. bilim. uz.](http://www.bilim.uz)

[www. ziyonet.uz.](http://www.ziynet.uz)

[www. google.uz.](http://www.google.uz)

[www. studa.bit.ru.](http://www.studa.bit.ru)

[http. ref.uz.](http://ref.uz)